Бироқ таҳлиллар йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича қонунчилик ҳужжатлари ҳали ягона тизим сифатида шаклланмаганлигини кўрсатмоқда. Бу борада К.М. Рахимов ҳам йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашга доир қонунчилик ҳужжатлари жуда кўп ва тарқоқлигини, ушбу муаммони ҳал этиш учун соҳага доир қонун ҳужжатларини тизимлаштириш, кодификациялаш лозимлигини таъкидлаб, ушбу масалани ҳал этишнинг 2 хил усули таклиф этилган. Биринчиси, йўл

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 10 апрелдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги ЎРҚ-348-сонли Қонуни // <https://lex.uz/acts/2153411>

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-27-сон Фармони // <https://lex.uz/uz/docs/5749291>.

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирининг 2016 йил 10 октябрдаги 243-мх-сонли "Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тармоқларининг Умумҳуқуқий классификаторини тасдиқлаш тўғрисида"ги буйруққа ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги буйруғи // <https://lex.uz/docs/3041406?query=16.05.02.00>.

ҳаракати хавфсизлиги соҳасига доир барча қонунчилик ҳужжатларини мазмунан бирлаштириб, ягона Йўл ҳаракати хавфсизлиги кодексини ишлаб чиқиш, иккинчиси, Ҳукумат қарорларининг мазмунан яқин ва такрорланувчи турларини аниқлаб, бирлаштириш, ҳаволаки нормаларни чиқариб ташлаш ва Ички ишлар вазирининг ички идоравий ҳужжатларини юқори юридик кучга эга Ҳукумат қарори шаклида қайта қабул қилиш ёки бирлаштириш<sup>11</sup>.

Афсуски бугунги кунда йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фан сифатида шаклланигани йўқ. Бунинг асосий сабабларидан бири ушбу фаолиятнинг техника ва юриди ҳуқуқбузарликлар фанлар тизимида алоҳида ўрганилиши, бу борада ягона ёндашувларнинг мавжуд эмаслиги ҳисобланади.

Юқоридаги таъкидланганидек, йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва уни ташкил этиш техника, юридик, психология ва педагогика фанлари доирасида алоҳида ўрганиб келинмоқда.

Йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикаси таълим соҳаси сифатида ҳам тўла шаклланигани йўқ. Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университетининг «Йўл-патруль хизматининг қўмондонлик-тактик фаолияти» ихтисослиги бўйича<sup>12</sup>, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Малака ошириш институтида эса «Йўл-патруль фаолияти» мутахассислиги бўйича таълим йўналишлари мавжуд.<sup>13</sup>

Йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бугунги кунда фан соҳаси сифатида асосан юридик ҳамда техника фанлари доирасида ўрганилади.

Криминология ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид адабиётларда ҳуқуқбузарликлар ҳуқуқбузарликлар профилактикаси одатда қасдан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларга нисбатан қўлланилади<sup>14</sup>. Бироқ йўл ҳаракатига доир

<sup>11</sup> Рахимов К.М. Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимининг назарий-ҳуқуқий жиҳатлари: юрид. фан. бўй. фалс. докт. дисс. Автореф. – Т. – 2022. Б.13.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 апрелдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида профессионал кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5077-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5377545>.

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 апрелдаги “Ички ишлар органлари учун профессионал кадрларни тайёрлашнинг сифат жиҳатидан янги тизимини жорий этиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5076-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5377619#5378460>.

<sup>14</sup> Масалан мустақиллик йилларида З.С. Зарипов томонидан 1991 йил 29 сентябрда “Ҳуқуқбузарлик профилактикасининг ҳуқуқий чоралар тизими ва уни самарали амалга оширишнинг асосий шартлари” мавзусида докторлик диссертацияси ҳамда З.Ф. Иноғомжонова томонидан 1991 йил 4 мартда “Хусусий ажрим-суднинг профилактик функциясини амалга оширишдаги муҳим восита” мавзусида, А.Н. Бикбулатов томонидан 1994 йил 27 майда “Взаимодействие профессиональных союзов Узбекистана с правоохранительными органами в профилактике правонарушений” мавзусида, У. Абдуганиев томонидан 1994 йил 16 декабрда “Криминологическая характеристика и профилактика преступлений, совершаемых несовершеннолетними” мавзусида, М. Собиров томонидан 1997 йил 28 январда “Проблемы использования криминологической, компьютерной и иной информации в профилактике правонарушений” мавзусида, Б.А. Орифжонов томонидан 1997 йил 29 апрелда “Правовые и организационные основы деятельности участковых инспекторов милиции по профилактике правонарушений” мавзусида, Р.А. Турдиев томонидан 2001

хуқуқбузарликларнинг аксарияти эҳтиётсизлик оқибатида содир этилади. Шу сабабли мазкур тоифадаги хуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этишнинг ўзига хос жиҳатларидан бири сифатида уларнинг аксарияти эҳтиётсизлик оқибатида содир этилишини ҳам назардан четда қолдирмаслик керак. Хусусан, А.В. Соляной ҳам ўз тадқиқотларида йўл ҳаракати соҳасида жиноятларнинг асосан эҳтиётсизлик оқибатида содир этиладиган қуйидаги иккита типологиясини ажратиб кўрсатади: йўл ҳаракати қоидаларига қасдан бепарволик (“шахснинг бевосита жиноий тип”), ситуацион (“криминал” тип) “ҳиссий”<sup>15</sup>.

Шу билан бирга йўл ҳаракатига доир хуқуқбузарликлар профилактикаси ҳақида сўз юритилганда болалар иштирокидаги йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олишга алоҳида эътибор қаратилади. Чунки, йўл ҳаракатига доир хуқуқбузарликларнинг виктимологик жиҳатлари ҳам мавжуд. Айниқса болаларнинг йўл-транспорт ҳодисаларига учраш эҳтимоли уларнинг виктимлик жиҳатлари билан бевосита боғлиқ ҳисобланади. Хусусан, жисмоний ва ақлий ривожланишига кўра болалар йўл-транспорт ҳодисаларининг қурбони бўлиш эҳтимоли юқори ҳисобланади. Маълумотларга кўра, болаларнинг бевақт ҳаётдан кўз юмишининг асосий омиллардан бири (39%) йўл-транспорт ҳодисалари ҳисобланади. Ҳар йили йўл-транспорт ҳодисалари натижасида 18 ёшгача бўлган 186 300 нафар бола, ҳар куни эса 500 дар ортиқ болалар ҳалок бўлади. Йўл-транспорт ҳодисалари 5 ёшдан ошган болалар ўлимининг тўртта энг кенг тарқалган сабабларидан бири ҳисобланади<sup>16</sup>. Республикамизда ҳам ўлим билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисаларининг салмоғи юқорилигича қолмоқда. Хусусан, 2022 йилда 2086 та, 2023 йилда эса 1949 ўлим билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисалари юз берган ва 2022 йилда 9209 нафар шахслар, 2023 йилда эса 9609 нафар шахслар ҳалок бўлган.

Е.С. Ромашиниха ўз тадқиқотларида болаларнинг йўлда бахтсиз ҳодисаларга мойиллиги уларнинг қуйидаги психофизиологик ривожланиш хусусиятларига боғлиқлигини аниқлаган: вазиятни етарли даражада баҳолай олмаслик; эҳтиёткорлик билан ҳаракат қилиш заруратини унутиш; катталарга таклид қилиш истаги; асосийни иккиламчидан ажратиш қобилиятининг йўқлиги; реал вазиятда ўз имкониятларини қайта

---

йил 8 июнда “Вояга етмаганлар томонидан такроран хуқуқбузарлик содир этишининг олдини олишда маъмурий-хуқуқий таъсир чоралари ва ижтимоий назорат” мавзусида, У.О. Мамадалиев томонидан 2002 йил 28 майда “Криминологическая характеристика и профилактика преступлений, связанных с иностранными гражданами” мавзусида, Ғ.Т. Абдуллахўжаев томонидан 2003 йил 7 октябрда “Ўғирлик ва фирибгарликнинг олдини олиш: виктимологик жиҳатлари” мавзусида, И.М. Мирзараимов томонидан 2003 йил 16 декабрда “Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни ошкорлаштиришни олдини олишнинг жиноят-хуқуқий ва криминологик чоралари” мавзусида, Р. Жаббарбергенев томонидан 2004 йил 30 сентябрда “Профилактическая функция наказания и механизм ее реализации” мавзусида номзодлик диссертациялари ёқланган бўлиб, ушбу диссертацияларда асосан қасдан содир этиладиган жиноят ва маъмурий хуқуқбузарликларнинг профилактикаси таҳлил қилинган.

<sup>15</sup> Соляной А.В. Предупреждение дорожно-транспортных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2011. – С. 8.

<sup>16</sup> Ежедневно в результате аварий на дорогах погибают 500 детей // <https://news.un.org/ru/story/2015/05/1262791>

баҳолай олмаслик; кучли, ўткир огоҳлантиришларга етарли даражада муносабатда бўлмаслик ва ҳоказо<sup>17</sup>.

Йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг асосий детерминатларини аниқлаш муҳим амалий аҳамият касб этади.

Йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши омиллари жуда ҳам турли туман ҳисобланади. А.В. Соляной бундай омилларни объектив ва субъектив омилларга ажратади. Унга кўра объектив сабаблари ҳайдовчининг айби билан боғлиқ бўлмаган, ҳамда субъектив сабаблар ҳайдовчининг айби билан боғлиқ сабаблар ҳисобланади. Биз мазкур муаллифнинг фикрини бироз ривожлантирган ҳолда ҳайдовчининг айби билан боғлиқ бўлмаган омилларни қуйидаги икки гуруҳга ажратишни таклиф этамиз:

йўл инфратузилмасининг ҳолати, мутлақо кутилмаган ва олдиндан билиш имкони бўлмаган техник ҳолатлар, об-ҳаво, табиат ҳодисалари, табиий ва техноген тусдаги ҳалокатлар, енгиб бўлмас куч таъсиридаги йўл-транспорт ҳодисалари;

пиёдалар ва йўловчиларнинг айби билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисалари.

Соляной А.В. йўл-транспорт ҳодисаларининг субъектив сабабларини қуйидаги уч гуруҳга бўлади:

1) ҳайдовчиларнинг айби билан боғлиқ сабаблар;

2) пиёдаларнинг айби билан боғлиқ сабаблар;

3) маст ҳолда ҳайдовчилар томонидан содир этилган йўл-транспорт ҳодисаларининг сабаблари<sup>18</sup>.

Биз бу ўринда ҳам ушбу муаллифнинг фикрини бироз тўлдирган ҳолда юқоридаги тоифадаги шахслар рўйхатини яна қуйидагилар билан тўлдиришни таклиф этамиз:

йўловчиларнинг айби билан боғлиқ сабаблар;

йўловчи, ҳайдовчи ва пиёдаларнинг аралаш айби билан боғлиқ сабаблар.

А.В. Соляной йўл ҳаракати соҳасида жиноят содир этган шахснинг асосий шахсият турларини қуйидагича моделлаштиради:

1. Йўл ҳаракати қоидаларини атайлаб эътиборсиз қолдирадиган типлар. Муаллиф ушбу типни яна иккита кичик турга бўлади:

1.1. Бевосита жиноят содир этган шахслар типи - транспорт воситасидан жиноят содир этишда фойдаланади.

1.2. Ўзига ишонган жиноятчи шахс типи - ўз маҳорати ва тажрибасини баҳолашда ўзига бўлган ишончни ошириб юборади. Ўз эҳтиёжларини қондириш учун онгли равишда таваккал қилади. Кўпинча йўл ҳаракати қоидаларига эътибор бермайди ва бошқа йўл ҳаракати қатнашчиларига бепарво муносабатда бўлади. Улар спиртли ичимликлар ёки гиёҳванд моддалар таъсирида транспорт воситасини бошқаришга мойил бўлади.

2. Вазиятли шахс типи - ўзининг психофизик фазилатлари туфайли у "кескин" атрофдаги вазиятга боғлиқ ва кўпинча экстремал шароитларда адекват ҳаракатларга

<sup>17</sup> Ромашиниха Е.С. Деятельность органов внутренних дел по осуществлению виктимологической профилактики детского дорожно -транспортного травматизма // Вестник Московского университета МВД России № 11 / 2014. Ст. 141.

<sup>18</sup> Соляной А.В. Предупреждение дорожно-транспортных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2011. – С. 19.

қодир эмас. Қоида тариқасида, йўл ҳаракати қоидаларига амал қилади. Бу ориентациянинг тўлиқ ёки қисман йўқолиши (масалан, онгни йўқотиш ёки соғлом фикрга зид ҳаракатлар қилиш) билан тавсифланади.

3. Ҳиссий шахс типи - кўпинча ташвиш ҳиссини бошдан кечиради. Хавотир хавфни бўртириб кўрсатиш ва ўзини ва ўзининг кучли томонларини, ўзининг ноаниқлигидан кам баҳо беришдан келиб чиқади. Қўрқув, ташвиш ва ташвишлар билан бирга бўлган ортиб бораётган ҳиссий тарангликдан азоб чекиш. Атрофдаги вазиятдан қатъи назар, доимо "ҳаяжонланган" ҳолатда бўлади<sup>19</sup>.

Бизнинг назаримизда юқоридаги тоифадаги шахсларни яна бир гуруҳ (тип) билан тўлдириш мумкин: малакасиз ҳайдовчилар типи.

Шу билан бирга таҳлиллар автомобиллаштириш жараёнларининг ўсиши ҳам йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг ортишининг асосий омилларидан бири ҳисобланишини кўрсатмоқда. Бу борада А.В. Соляной ҳам автомобиллаштириш давлат иқтисодиёти ва ижтимоий ривожланишига сўзсиз ижобий таъсир кўрсатиш билан бирга, йўл-транспорт ҳодисалари кўринишидаги салбий оқибатларга ҳам олиб келишини ўз тадқиқотларида исботлаган<sup>20</sup>.

А.В. Соляной ўз тадқиқотлари асосида йўл ҳаракати ва транспорт воситаларидан фойдаланиш қоидаларини жиноий бузишнинг олдини олиш бўйича умумий чора-тадбирларнинг асосий йўналишлари сифатида қуйидагиларни таклиф этади:

- жиноят қонунчилигини ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни чора-тадбирлар;
- жамиятда эътиқод ва қадрият йўналишларини шакллантиришни назарда тутувчи ғоявий-ахлоқий чора-тадбирлар;
- аҳоли турмуш даражасини ошириш, ижтимоий қафолатларни таъминлаш билан боғлиқ ижтимоий-иқтисодий чора-тадбирлар;
- давлат органлари ва мансабдор шахслар томонидан қарорлар қабул қилиш, тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш, молиявий оқимларни бошқариш жараёнларини текширишнинг шаффофлиги ва очиклиги асосида ижтимоий-ҳуқуқий назоратга оид чора-тадбирлар<sup>21</sup>.

Бизнинг назаримизда йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга оид умумий чора-тадбирларни яна қуйидагилар билан ҳам тўлдириш лозим:

- йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бўйича дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;
- ҳуқуқий тарғибот тадбирлари;
- йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шароитларини бартараф этиш бўйича тақдимномалар киритиш.

Шунингдек, А.В. Соляной ўз тадқиқотларида йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бўйича махсус чора-тадбирлар сифатида

<sup>19</sup> Соляной А.В. Предупреждение дорожно-транспортных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2011. – С. 15 - 16.

<sup>20</sup> Соляной А.В. Предупреждение дорожно-транспортных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2011. – С. 11.

<sup>21</sup> Соляной А.В. Предупреждение дорожно-транспортных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2011. – С. 21.

куйидагиларни таклиф этади: 1) ижтимоий-ҳуқуқий, ташкилий чора-тадбирларни кўзда тутувчи, бахтсиз ҳодисаларнинг олдини олиш бўйича узоқ муддатли комплекс дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш; 2) ҳаракат хавфсизлиги ва транспортдан фойдаланиш қоидаларини бузганлик учун жиноий, маъмурий ва интизомий жавобгарликни тартибга солувчи қонунчилик ва меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни, шунингдек, транспорт ҳодисаларини расмий тергов қилишни тартибга солувчи ҳужжатларни такомиллаштириш; 3) транспорт жиноятлари тўғрисидаги жиноят ишларини тергов қилиш ва судда кўриш амалиётини доимий равишда такомиллаштириш; 4) ҳаракат хавфсизлиги ва транспортдан фойдаланишни тартибга солувчи қонунлар ижроси устидан прокурор назоратини такомиллаштириш; 5) терговчилар ва прокурорларнинг, идоралараро органлар мутахассисларининг ҳаракат хавфсизлиги ва транспортдан фойдаланишни таъминлаш билан боғлиқ тайёргарлик даражасини ошириш; 6) транспорт ходимларининг касбий тайёргарлиги даражасини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар; 7) йўл маълумотларининг мазмунини ошириш (белгиларни қўллаш, йўл белгиларини, маълумот тахталарини, электрон дисплейларни ва бошқаларни ўрнатиш); 8) транспорт воситалари ва йўлларнинг фаол ва пасив хавфсизлигини таъминлашнинг замонавий воситаларини жорий этиш; 9) криминологик тадқиқотлар олиб бориш, улар орқали автотранспорт жиноятларининг ҳолати ва тенденциялари, унинг ҳудудий ва бошқа хусусиятларига таъсир қилувчи сабаблар ва шарт-шароитлар ўрганилади; 10) жиноятлар тўғрисидаги статистик маълумотларни юритиш ва ҳисобга олиш ваколатларини Давлат статистика хизматиغا ўтказиш.

Бизнинг назаримизда йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасини такомиллаштиришда бу турдаги ҳуқуқбузарликларни содир этган шахслар билан яқка тартибдаги профилактик ишларни олиб бориш, шунингдек йўл-транспорт воситаларидан жабрланиш эҳтимоли юқори бўлган шахслар, айниқса болалар ўртасида виктимологик чораларни кучайтириш лозим.

Шундай қилиб, йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ўз мазмунига кўра ўта мураккаб ва комплекс характерга эга бўлган чора-тадбирлар тизимидан иборат бўлиб, айтилган вақтда жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг таркибий қисми ҳисобланади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Соляной А.В. Предупреждение дорожно-транспортных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2011. – С. 15 - 16.
2. Соляной А.В. Предупреждение дорожно-транспортных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2011. – С. 11.
3. Соляной А.В. Предупреждение дорожно-транспортных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2011. – С. 21.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони // <https://lex.uz/uz/docs/5749291>.

5. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирининг 2016 йил 10 октябрдаги 243-мх-сонли “Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тармоқларининг Умумҳуқуқий классификаторини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруққа ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги буйруғи // <https://lex.uz/docs/3041406?query=16.05.02.00>.

6. Рахимов К.М. Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимининг назарий-ҳуқуқий жиҳатлари: юрид. фан. бўй. фалс. докт. дисс. Автореф. – Т. – 2022. Б.13.

7. <https://nonews.co/directory/lists/countries/mortality-road-traffic>

8. <https://nonews.co/directory/lists/countries/mortality-road-traffic>

9. Гасилова О.С. Методика обеспечения безопасности дорожного движения на регулируемых пересечениях при наличии поворотных потоков: Автореф. дис. ... канд. тех. наук. – Санкт-Петербург, 2021. – 28 с., Джурук Д.С. Методика повышения безопасности дорожного движения на двухполосных дорогах в местах концентрации ДТП на примере Сибирского Федерального округа: Автореф. дис. ... канд. тех. наук. – Санкт-Петербург, 2020. – 24 с., Куракина Е.В. Методология обеспечения безопасности дорожного движения по критерию «нулевой смертности» в дорожно-транспортных происшествиях: Автореф. дис. ... докт. тех. наук. – Орёл, 2022. – 44 с., Курьянова О.Е. Повышение безопасности дорожного движения методами совершенствования системы подготовки водителей: Автореф. дис. ... канд. тех. наук. – Москва, 1998. – 21 с., Доткулова А.С. Повышение безопасности дорожного движения на основе оценки поведения водителя: Автореф. дис. ... канд. тех. наук. – Москва, 2022. – 24 с., Якупова Г.А. Повышение безопасности дорожного движения на основе системного подхода с применением современных методов и моделей: Автореф. дис. ... канд. тех. наук. – Казань, 2021. – 19 с., Шешера Н.Г.

10. С.Б. Хўжакулов. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: генезиси, назарияси ва амалиёти: Юрид. фан. докт-ри. ... дис. – Т., 2023. 29 б.

11. Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 10 апрелдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги ЎРҚ-348-сонли Қонуни // <https://lex.uz/acts/2153411>

**THE ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PEDAGOGY**

**Karimova Sevara Shaxriddin qizi**

Doctoral student of Gulistan State University

**Habibullayeva Shoira Farhod qizi**

Student of Gulistan State University

**Abstract:** We know that the primary school serves as a foundation for the future of the young generation. Didactic games are extremely important in explaining new topics to primary school students. That is why this article talks about the importance of the educational process in primary classes.

**Key words:** elementary school, didactic, game, education methods, types of education methods, methods of encouragement and punishment in education, activity, issue.

In modern pedagogy, there are dozens of classifications of education, some of which focus on solving practical tasks, and some of which reflect only theoretical tasks. Methods are divided into persuasion, training, encouragement and reprimand according to their specific character.

The categories of education, content, and form reveal the essence of the educational process (what it is aimed at, what it fills, what it is aimed at, and how it is completed). However, there is another important category related to the question of how to educate in the clarification of the essence of education. This is the concept of education method.

The method of education (from the Greek "methodos" - the way) is the way to achieve the goal of education. When applied to school practice, methods are methods of influencing the mind, will, feelings and behavior of students. No educator is capable of creating completely new methods of education. The problem of improving the methods is always present, each educator solves it according to his ability, enriches the general methodology based on the expression of his private views in accordance with the specific conditions of the educational process. Such private improvement of educational methods is called educational methods. Educational methods are a part of the general method, a separate movement, further definition. Figuratively speaking, methods are an unexplored path that a teacher paves the way with his students in order to achieve the set goal faster. If other educators start to use it, then gradually the methods can turn into methods with broad pillars. Knowing the methods and methods of education, mastering the ability to use them correctly is one of the important characteristics that determine the level of pedagogical skills. That is the relevance of educational methods and methods. In practice, the concept of educational tools is also distinguished.

Methods mean a unit of influence, and a tool means a set of methods.

A tool is neither a method nor a method.

For example, work is a means of education, but showing it, evaluating work, showing mistakes in work are methods. Words (in the broadest sense) are educational tools, but replicas are comparative methods. In this connection, educational methods are sometimes defined as a system of methods and tools used for the successful implementation of a set goal. Also, methods and tools will definitely be present in the structure of the method.

The purpose and content of educational methods There are no positive and negative aspects of the method, it is impossible to evaluate a certain way in the educational process as



highly effective or ineffective. The effectiveness of the method can be evaluated from the point of view of the conditions in which it is used. Appropriate selection of educational methods depends on a number of factors.

1. Goals and tasks of education. The goal not only justifies the methods, but also defines them. Whatever the goal, the methods of achieving it must be in accordance with it.

2. Content of education. Do not forget that the same task can be filled with different ideas. Therefore, it is very important to connect the methods not with the content at all, but with a clear idea.

3. Taking into account the age characteristics of the students. This or similar tasks are solved depending on the age of the students. Age is not simply a numerical indicator of how long one has lived. It reflects the acquired social experience, the level of development of psychological and moral qualities. For example, the sense of responsibility can be formed in students studying in primary education, secondary education and secondary special, vocational education institutions. However, different methods are used for the formation of this quality at each stage.

4. The level of formation of the team. In connection with the development of the collective form of self-management, the methods of pedagogical influence do not remain unchanged. As we know, the flexibility of management is a necessary condition for the successful cooperation of the educator with the students.

5. Individual characteristics of students. General methods, general programs cannot be the basis of educational interaction. It is necessary to adjust them individually and personally. A humanistic pedagogue tries to use methods that allow each person to develop his or her individuality, to preserve his or her individuality, to realize his or her "I".

6. Educational conditions. It includes material, psychophysiological, and sanitary-hygienic relations in the classroom: the climate in the team, the method of pedagogical leadership, etc. It is known that there are no abstract conditions, they are always concrete. Their combination is visible in certain cases. Pedagogical situations are the conditions in which education takes place.

7. Educational tools. Educational methods are formed from educational tools that appear as components of the educational process. There are other educational tools that are closely related to the methods and are used together. For example, visual aids, visual arts and music, mass media that provide necessary support for the effective application of methods.

8. The level of acquiring pedagogical skills. The teacher usually chooses only the methods that he knows and knows how to use. Many methods are complex and require a lot of effort on the part of the teacher. Educators who avoid such responsibility try to organize activities without them. As a result, it is less effective than using methods based on different images, different goals, tasks, and conditions.

9. Time of education. When time is short and the goal is big, "strongly moving" methods are used, and in favorable conditions, "sparing" methods of education are used. It is necessary to divide education into "strongly motivating" and "sympathetic" methods: the first is connected with reprimanding and coercion, and the second is connected with exhortation and constant training.

10. Expected result. When choosing a method, the educator must be confident that he will succeed. For this, it is necessary to know in advance what the method used will lead to.

In this case, the general characteristic of the method reflects its orientation, originality, applicability. The general methods of education, which are distinguished by the more generalization of the methods, are firmly connected to this classification. It includes methods of persuasion, organization of activities, motivation of students' behavior. I.S. In Marenko's classification, groups of educational methods are named as follows: explanatory-reproductive, problem-based, teaching and training methods, motivational, inhibitory, management, self-education. ra methods can be divided into two groups:

1. Ethical standards that influence the formation of motives, the formation of imagination, understanding, and ideas.
2. Affecting the formation of habits that determine one or another type of behavior.

Methods depend on the purpose and content of education. The methods of education are aimed at forming the qualities of a well-rounded person. Therefore, taking into account the level of development of students is an important condition for the effective use of educational methods. Students react differently to this or that educational effect. It depends on their special characteristics, the level of upbringing, the extent to which educational methods are chosen appropriately and effectively, and how skillfully they are used.

The correct choice of educational methods helps to increase the activity of self-education of students in solving educational tasks positively. For example, in the process of working with first-grade students, the teacher uses the method of explaining to them the rules of behavior of students, the importance of having a clear agenda, and the need for students to follow a strict order when teaching students new work activities. In addition to explaining, he trains them to enter the classroom correctly, to greet the teacher and students, and to maintain discipline. At the same time, the students of the first grade are used to the above processes during the lesson. In this process, the positive work they have done, the results of their educational work, require encouragement. It can be seen that the teacher uses different methods and methods when conducting the educational process with students. The variety of educational methods shows the need to divide and classify them into types. Therefore, they can be divided into groups, taking into account their special characteristics. Every teacher (educator) who wants to achieve educational results should thoroughly master educational methods and their essence.

The task of the first group of methods is to create an understanding and knowledge about the rules and norms of life, ethics, labor relations in the social mind of the student. In the process of education, these rules and norms become the beliefs, confidence and life views of a person. This group includes spiritual, moral, aesthetic, ideological, legal, physical, ecological, economic, etc. it is possible to include conversations on the content and the methods of showing examples. Using the methods of the second group, the student forms habits related to the spiritual content. The behavior of the student is formed in accordance with the content of social education on the basis of moral habits and on the ground of activity. Activity is an important resource that enriches the experience of social relations and social behavior of students.

Among the methods of the second group, the method of pedagogical demand is important. Pedagogical demand can be the fulfillment of various tasks, i.e. expressing the norms of social behavior, performing a specific task that needs to be performed by participating in this or that activity, and encouraging one or another action.

Claims can be made directly or indirectly. Direct requirements are in the form of a strict command or instruction, a task, a guiding description. Indirect demands are expressed in the form of advice, request, rebuke, interest in activities, with the aim of arousing a sense of

experience and aspiration. Requirements imply that the student has some level of awareness, reason, purpose, and belief. At the same time, the teacher must pay special attention to the standards of the requirements imposed on the students. In the process of useful activities and specially organized tasks, positive behavior and characters are taught. Teaching is an encouraging activity to organize various actions and practical activities organized by students in a planned and systematic way in order to transform social behavior into a normal form. Teaching is considered an effective tool at all stages of education and development of students. Exercises in the activity are aimed at training the habits of work, social activity, team activity and interaction. Training is closely related to teaching. If the basis of teaching lies in the child's mastery of the activity process, then the activity of training is of special importance for the individual. Training relies heavily on learning to control repetition, reinforcement, and improvement, which increasingly become the basis of social behavior.


#### REFERENCES:

1. Shahriddinova, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
2. Shahriddinova, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.
3. Shahriddinova K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students // *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*. – 2023. – T. 19. – C. 183-187.
4. Shahriddinova K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD // *American Journal of Applied Science and Technology*. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 09-14.
5. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
6. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS // *Science and innovation*. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 214-218.
7. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 737-740.
8. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 161–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537>
9. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg'unboyeva, M. (2023). EDUCATION IS UPBRINGING, KNOWLEDGE IS SALVATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 164–166. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538>
10. Mamatova, . H., Karimova, S., & Mamayusupova, . Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Modern Science and Research*, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>
11. Karimova Sevara Shaxriddin Qizi. (2023). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *International Scientific and*

Current Research Conferences, 1(01), 43–45. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1105>

12. Qizi K. S. S. FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – C. 43-45.

13. Karimova Sevara “Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students” In volume 19, of Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT) April 2023.



**SALBIY ILLATLARDAN XOLI, MA'NAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA  
OILANING ROLI****Ravshan XIDOYATOV,**

Jizzax politexnika instituti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası dotsenti.

[rxidoyatov@mail.ru](mailto:rxidoyatov@mail.ru)**Ubaydulla XOLMURZAEV,**

JizPI Servis fakul'teti,

Professional ta'lim yo'nalishi

552-23 gurux talabasi.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida yuzaga kelayotgan qonunbuzarlik holatlarining tahlili va uning oldini olish butun dunyo ilmiy jamoatchiligi oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bunday salbiy illatlarni ilmiy tahlil qilish, uning oldini olish YAngi O'zbekistonimiz kelajagini, moddiy va ma'naviy asosini belgilaydi. Zotan, sog'lom axloqli, etuk ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarimiz kelajagi Uchinchi renesans poydevori bo'lmog'i lozim.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan mamlakatimiz yoshlari o'rtasida jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik va o'z joniga qasd qilish kabi jamiyatimiz uchun yot bo'lgan salbiy illatlarning kamaymayotganligi ko'p jihatdan oilaviy tarbiyada yo'l qo'yilayotgan nuqson va hatolarga bog'liq bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin. Respublikamizda bunday noxush holatlarning ortib borayotganligiga qaramasdan, bu muammoni o'rganishga etarlicha e'tibor berilmayapti. Bolalar va o'smirlar o'rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarlik holatlarining namoyon bo'lishida oilaviy nosog'lom psixologik muhitning o'rni, qonunbuzar bolalarning shahs va individual-psixologik xususiyatlari, jinoyatchilik xulqini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy psixologik omillar bugungi kunda ilmiy jihatdan yanad ko'proq tadqiq etilishi zarur bo'lgan sohaligicha qolmoqda.

Ilmiy manbalar tahlili, tadqiqotlar va kuzatuvlarimizning natijalaridan ma'lum bo'lishicha to'laqonli bo'lmagan, nizoli, loqayd, spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan oilalarda, na'munali oilalarga nisbatan salbiy xulqli bolalar ko'proq etishib chiqayotganligi kuzatilmoqda. Bunday oilalarda tarbiyalangan bolalar va o'smirlar xulqida o'jarlik, tajovuzkorlik, qabihlik, tekinxo'rlik kabi salbiy hislatlar rivodlangan bo'ladi. Bunday bolalar va o'smirlar xulq og'ishiga psixofizologik jihatdan moyilliklari bilan ajralib turadi.

Oiladagi salbiy axloqiy iqlim, noxush moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro nosog'lom psixologik munosabat, ko'plab oilalarnig ajrimga yuz tutishi va shu kabilar bolalar va o'smirlarda og'ma xulqning kelib chiqishida asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. SHuningdek, oilada bola tarbiyasiga tizimli yondoshuvning yo'qligi, shaxslararo munosabatlarda ota-onalarning bolalar va o'smirlarning yosh va individual-psixologik, emotsional holatlarini hisobga olmasliklari, turli vazifalarda tarbiyaviy, ta'sir vositalarining noto'g'ri qo'llanilishi, bolalarning ota-onalar va kattalar nazoratidan chetda qolishliklari ham bolalar va o'smirlarda salbiy xulqning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Nazoratdan chetda qolgan bolalar o'zlarini mustaqil hisoblab, ko'ngillari tusagan ishni qilishga intiladilar. Bunday bolalar kichik-kichik o'tirishlarga, videobarlarga boradi. Internet tarmoqlaridagi jangari, axloqsiz va boshqa salbiy holatlarni ko'rishga moyil bo'ladi. Ayrim qilig'i sovuq kimsalarga taqlid qilib, ichishni,

chekishni o'rganib oladilar. Xo'sh, bunday xulqni o'zida namayon qila boshlagan bolalarning ertaga qonunbuzarlikka qo'l urib, katta-katta jinoyatlarni sodir etmasliklariga kim kafolat bera oladi.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar orasida kuzatuvlarimiz natijalariga ko'ra "Bolalar tarbiyasining ota-onalar va boshqa kishilar tomonidan o'z holiga tashlab qo'yishlik" omili eng yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi. "Ota-onalardan birining jamiyat va axloq normalariga zid bo'lgan xulqqa ega bo'lishligi" ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, "Moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning etishmasligi", "Ota-ona va kattalarning bolalarga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lishlari" va shu kabi bir qator omillar keyingi o'rinlarni egallaydi.

Xulosa qilib aytgand, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bolalar tarbiyasining o'z holiga tashlab qo'yilishi, ular faoliyatini nazorat qilmaslik salbiy holatlarning kelib chiqishida asosiy omil rolini o'ynaydi. SHu boisdan bolalarga, ayniqsa o'smirlarga oilada tarbiya berish jarayonida ota-onalar o'ta sergak, e'tiborli, adolatli munosabatda bo'lishlari yoshlar o'rtasidagi yuzaga kelayotgan qonunbuzarlik holatlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini hech ham unutmashimiz kerak.

Biz kuzatishlarimizdan kelib chiqib bolalar va o'smirlar o'rtasida yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning oldini olishda oilaviy tarbiyada quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- Oilada eng avvalo sog'lom psixologik muhitni yaratish;
- Oilada bolalar tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'yimaslik;
- Oilaviy munosabatlarda bolalar bilan muloqotga kirishishda ularning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish o'ta zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Р.Хидоятов "Маънавиятсиз – иқтисодийни юксалтириб бўлмайди". Министерство Транспорта Республики Узбекистан Ташкентский транспортный университет при поддержке: Исполнительного комитета стран СНГ- координационное транспортное совещание государств-участников СНГ. Международная научно-техническая конференция "Транспорт: актуальные задачи и инно

2. Хидоятов, Р., Хакимов, О., & Исакобулов, Р. Ю. (2016). Духовная просвещенность руководителя: проблемы и их решения. *Молодой ученый*, (7-2), 96-99. вацции". Тошкент 22 апреля 2021г.

3. Хидоятов, Р., & Тўхтаев, З. (2022). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ НОВОЙ УЗБЕКСКОЙ ЭКОНОМИКИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 35.

4. ХИДОЯТОВ, Р. (2023). МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА МУҲИМ ОМИЛ.

5. Р.Хидоятов "Маънавиятсиз – иқтисодийни юксалтириб бўлмайди". Министерство Транспорта Республики Узбекистан Ташкентский транспортный университет при поддержке: Исполнительного комитета стран СНГ- координационное транспортное совещание государств-участников СНГ. Международная научно-техническая конференция "Транспорт: актуальные задачи и инно

6. Yaхуууеvna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 2(3), 23-26.

7. Yaхуууеvna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(3), 37-40.

8. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТЛИ ЯШАЙДИ. Educational Research in Universal Sciences, 3(1), 464-469.

9. Рашидова, Б. (2022). ЮКСАК МАЪНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 351-355.



THE ROLE OF ISLAMIC FINANCE IN PROJECT FINANCING

**Akramov Sardor Zaxidovich**

[magister.akramov@gmail.com](mailto:magister.akramov@gmail.com)

Head of Youth Work, Acceleration and Incubation Department of Innovative Educational and Production Technopark "INNO" under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation

**Annotation.** In the Islamic countries of the East, financial institutions began to use principles that do not contradict the religious teachings of Islam. When assessing the potential and prospects of this market, it is very important to pay attention to the existing relationships within the region, as well as with other developing countries.

**Keywords:** Islamic finance, MENA, GCC, sukuk, capital, liquidity.

Dramatic political changes in the Middle East and North Africa last year significantly disrupted economic activity, but selectively across the region. For developing oil-importing countries, the initial conditions, including the current period of turmoil, are weak: lack of meaningful financial capacity, fading economic activity, depleting reserves and continued social tensions in several countries. Oil exporting countries (if not in internal conflict) are better prepared to withstand the brunt of the crisis, provided oil prices do not fall significantly in the face of reduced demand.

The Islamic finance market has seen rapid growth in recent years, and although it represents only 1.5% of global banking assets, it remains a highly underserved market in many regions and across asset categories. This has led very large Islamic players in the global market to rethink their strategies to capitalize on the emerging opportunities.

The past 12 months have marked a turning point for the Islamic finance industry as international Shariah-compliant assets have crossed the \$1,000 billion mark. USA. For a business less than 40 years old, the global financial crisis represents the first major challenge facing Islamic finance, but there is no doubt that its growth story will be long and lasting. The Islamic finance industry is expected to record a compound annual growth rate (CAGR) of 15% to 20% through 2015, according to a report published in November 2010 by professional services firm PricewaterhouseCoopers (one of the world's largest accounting firms) [3].

With the deepening debt crisis in the eurozone and financial turmoil in the United States, investors are increasingly looking to move away from the speculative and profit-driven financial system. As part of the new world order of economy and prudence, Islamic finance's fundamental principles of risk sharing, as well as the prohibition of interest, have helped boost its image as a safe haven.


Significant infrastructure developments planned in both Southeast Asia and the Middle East mean that sovereign or parastatal issuers will depend, among other sources of project financing, on Shariah-compliant documents that are tailored to meet different needs. Indeed, project financing needs in the Middle East are estimated at \$120 billion. USA over the next decade to provide professional services to KPMG (one of the big four largest international audit firms in the world), and \$150 billion. USA for Southeast Asian countries over the next five years [3].



The Islamic debt capital market will play an important role in these long-term projects. Both government and private sector developers can use conventional bank financing, but the liquidity pool is shrinking day by day in light of tightening credit lines and strengthening regulatory requirements. There is a large pool of liquidity for Islamic finance, making project finance sukuk a viable alternative.

#### BIBLIOGRAPHY

1. International Monetary Fund [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.imf.org>.
2. <http://www.wb.org>.
3. The Banker [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.thebanker.com>.



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK VOSITALARDAN  
FOYDALANISHNING AHAMIYATI  
ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В  
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Istamova Shoxida Maxsudovna**

Filologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Qurbonnazarova Gulbegim To'ymurodovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)  
yo'nalishi I kurs magistranti

**Abstract:** This article describes the role of didactic tools in the educational process, didactic opportunities and principles in elementary grades.

**Key words:** Key words: didactic term, didactic tools, Steinberg technology, multidimensional tools.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda didaktik vositalarning o'quv jarayonida tutgan o'rni, didaktik imkoniyatlar va tamoyillar,

**Kalit so'zlar:** didaktika atamasi, didaktik vositalar, Shtaynberg texnologiyasi, ko'p o'lchovli vositalar.

**Аннотация:** В данной статье описывается роль дидактических средств в образовательном процессе, дидактические возможности и принципы в младших классах.

**Ключевые слова:** дидактический термин, дидактический инструментарий, технология Штейнберга, многомерный инструментарий.

Bugungi kunda insoniyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi Respublikamizda ta'lim tizimida ham samarali o'zgarishlar bo'lmoqda. Har tomonlama yetuk, barcha sohalarda ilg'or yosh avlodni tarbiyalash ta'limning asosiy vazifasidir. Bu esa o'z navbatida ushbu ta'lim tizimini ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan malakali o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlashni talab qiladi. Ta'lim jarayonining asosiy tashkil etuvchilaridan bo'lmish zamonaviy didaktik vositalarni o'zlashtirib bu vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.<sup>22</sup> Didaktik vositalar haqida so'z yuritar ekanmiz avvalo, "vosita" atamasiga e'tibor qaratamiz. Biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsa, qurol. Masalan: axborot vositalari, texnika vositalari, transport vositalari, ishlab chiqarish vositalari.<sup>23</sup> [Xuddi shunday ta'limni ham didaktik vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Endi "didaktika"](#) atamasiga to'xtalamiz. Didaktika-pedagogikaning mustaqil tarmog'i. Ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Didaktika pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismdir.

Didaktika grekcha so'z bo'lib, "didasko" – o'qitish, "didaktos" – o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. Didaktika pedagogikaning "Nima uchun o'qitish kerak", "Nimani o'qitish kerak", "Qanday o'qitish kerak", "Qanday hajmda o'qitish kerak", "Kimlarni o'qitish kerak", "Qayerda o'qitish kerak", "Nimadan foydalanib o'qitish kerak" kabi savollariga javob

<sup>22</sup> Didaktik vositalar majmuasi. M.M. Axmedjanov. Z.SH. To'xtayeva. Toshkent 2007. 5 bet

<sup>23</sup> "Vosita" so'zining lug'aviy ma'nosi. <https://uz.wiktionary.org/wiki/vosita>

izlaydi.<sup>24</sup> Didaktik vositalar – bizga tanish, hayotimizda uchraydigan, hatto biz foydalanib yurgan vositalar bo'lishi mumkin. Ularning hammasi ham aynan ta'lim berish uchun ishlab chiqarilgan vosita bo'lishi shart emas. Shu jihatdan olganda didaktik vositalardan foydalanishni o'rganish osonroq. Faqat qo'llanilayotgan vositaning didaktik imkoniyatlarini aniqlab olish zarur. Masalan, televideniya olsak, u turmushimizda dam olish uchun qo'llaniladigan maishiy texnik vositasi bo'lsa, aholi orasida targ'ibot ishlarini olib borishida ommaviy axborot vositasi hisoblanadi. Lekin undan ta'limda ham keng foydalanyapmiz. Masalan, masofadan turib o'qitishda u didaktik vosita sifatida qo'llanilyapti.<sup>25</sup> Avvalo biz didaktik vositalarni uch yo'nalishga ajratamiz. Bular didaktik materiallar, ulardan foydalanish uchun qo'llaniladigan didaktik vositalar, hamda didaktik materiallar va vositalar yordamida ta'limni amalga oshirish uchun loyihalangan majmualardir. Har bir yo'nalish bo'yicha ularning tegishli turlari bor. O'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarga beriladigan, namoyish qilinadigan, bajarib ko'rsatiladigan va shunga o'xshash barcha turdagi o'quv axborotlarini biz didaktik materiallar deymiz. Ularni qachon va qay maqsadda qo'llashimizga qarab ularni alohida guruhlariga ajratib chiqamiz. Ushbu materiallarni qo'llashda va tayyorlashda didaktik vositalardan foydalanamiz. Masalan, plakatlar, diapozitivlar, fotosuratlar, audio, televizion va videomateriallar, information texnologiyalar asosidagi materiallar va h.k. O'z navbatida mashg'ulot davomida bir necha turdagi didaktik materiallarni qo'llaymiz, buning uchun tegishli didaktik vositalardan foydalanamiz. Bular esa birgalikda shu mashg'ulot uchun tuzilgan didaktik vositalari majmuasi hisoblanadi.<sup>26</sup> Didaktik vositalarni turlari: -o'rgatuvchi didaktik vositalar–o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi; -test didaktik vositalar–egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi; -mashq qildirgichlar-avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi; -o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi didaktik vositalar.<sup>27</sup>

Pedagogika fanlari doktori Valeriy Emmanuilovich Shtaynberg tomonidan ishlab chiqilgan didaktik ko'p o'lchovli texnologiya ko'p imkoniyatlarni keltirib chiqardi. Texnologiya atrofdagi dunyoning ko'p o'lchovliligi prinsipiga asoslangan edi. Ushbu texnologiya doirasida “ko'p o'lchovlilik” tushunchasi yetakchi bo'lib, bilimlarning turli elementlarining fazoviy, tizimli tashkil etilishi sifatida tushuniladi. Ko'p o'lchovli didaktik texnologiya quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialini taqdim etishning an'anaviy shakllaridan (matn, nutq, diagrammalar va boshqalar) foydalanshda bir o'lchovlilik stereotipini yengish;
- o'quv ma'lumotlarini tushunish va yodlash, shuningdek fikrlash, xotira va intellektual faoliyatning samarali usullarini rivojlantirish uchun bilimlarni o'zlashtirish va qayta ishlash uchun o'quvchilarni faol kognitiv faoliyatga jalb qilish.

Didaktik ko'p o'lchovli vositalar ta'lim jarayonining bosqichlariga asoslanadi: bilimni idrok etish; tushunish va aniqlash; ko'paytirish va qo'llash. Ular o'quvchiga eng qiyin, lekin ayni paytda “inferensial” texnologiyaning eng muhim elementlarini–bilimlarni tahlil qilish va

<sup>24</sup>Didaktika — pedagogik ta'lim nazariyasi sifatida. <https://www.savol-javob.com/didaktika-pedagogik-talim-nazariyasi-sifatida/?ysclid=lr2es2peli847036421>

<sup>25</sup> Didaktik vositalar majmuasi. M.M. Axmedjanov. Z.SH. To'xtayeva. Toshkent 2007. 7- bet

<sup>26</sup> O'sha manba. 9- bet

<sup>27</sup> O'rgatuvchi didaktik materiallar tayyorlash [va foydalanish metodikasi. http://fayllar.org/kurs-ishi-mavzu-orgatuvchi-didaktik-materiallar-tayyorlash-va-v3.html](http://fayllar.org/kurs-ishi-mavzu-orgatuvchi-didaktik-materiallar-tayyorlash-va-v3.html)

sintez qilishni bajarishga yordam beradi, buning natijasida o'quvchilarning o'quv faoliyatini mustaqil va samaraliroq amaga oshirish qobiliyati shakllanadi. Ko'p o'lchovli didaktik vositalar va boshqa ko'rgazmali qurollarning pedagogik vazifasi nafaqat o'rganilayotgan hodisaning mohiyatini ochib berish, butunning qismlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish, balki bolalarni harakat va tafakkuring adekvat algoritmini shakllantirishdir.<sup>28</sup> Didaktika san'ati pedagogik mahoratning asosidir. Ammo umumiy didaktikada o'quvchi psixikasining yoshga bog'liq xususiyatlaridan kelib chiqib, "nima va qanday o'rgatish kerak?" degan savollarga javob izlasa, didaktik vositalarning maqsadi "qanday qilib o'rgatish kerak?" muammosini yechadi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini o'qitishda idrok va yodlash mexanizmlarining psixologik xususiyatlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Agar sezgilar (eshitish, ko'rish, teginish), his-tuyg'ular va harakat qobiliyatlari faol ishtirok etsa, o'quv jarayoni yanada qizg'in bo'ladi. Qo'shomcha ko'rgazmali qurollar va boshqa o'quv materiallaridan foydalanmasdan o'rganishni "tushuntirish-mustahkamlash-nazorat"ga o'tkazish darsni zerikarli va samarasiz qilish demakdir".<sup>29</sup> Didaktik o'qitish vositalariga quyidagilar kiradi: darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv materiallari, ko'rgazmali qurollar, laboratoriya jihozlari va boshqalar. Vositalar og'zaki, majoziy, namunali va ramziy bo'lishi mumkin. O'quv jarayonida didaktik vositalar bir qator funksiyalarni bajaradi:

1. didaktik – ma'lum bir ta'lim muhitida o'quv qurollarining muhim xususiyatlari va imkoniyatlarini tavsiflaydi, axborot, integrative, motivatsion rollarni bajaradi;
2. kognitiv – o'quvchilarga voqelikning o'ziga xos qismlari haqida to'g'ridan-tog'ri bilimlarni beradi;
3. axborot – turli xil ma'lumotlarni taqdim qiladi;
4. shakllantirish – o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini, irodasini va his-tuyg'ularini rivojlantiradi;
5. boshqaruv.

Murakkablik darajasiga ko'ra didaktik vositalarni oddiy va murakkabga bo'lish mumkin. Oddiy didaktik vositalar: tabiiy yoki sun'iy sharoitdagi tabiiy misollar; modellar; tayyorlangan namunalar; kartalar; rasmlar; diagrammalar va boshqalar. Murakkab o'quv qurollari har xil turdagi elektr va mexanik qurilmalar: televideniye uskunalari, kinoprojektorlar, o'quv jarayonini avtomatlashtirish imkonini beruvchi qurilmalar va boshqalar. Shu bilan birga, hissiy ta'sirlarning har xil turlari didaktik vositalarning murakkabligi mezonlariga bo'ysunadi. M. Godlevskiy didaktik vositalarning tasnifini taklif qildi, unga ko'ra ular:

- taxtalar (flannel, magnit, montaj, teshilgan, interaktiv va boshqalar);
- yorug'lik proyeksiyasi uchun asboblari (har xil turdagi projektorlar, proyeksiya uchun optik lampalar, elasto-optik qurilmalar, stroboskoplar, kuzatish maydonini yorituvchi qurilmalar, yordamchi qurilmalar–qorayish, ekranlar va boshqalar);
- ovozni qayta tiklash va yozishni kuchaytirish uchun asboblari (magnitafonlar, pleyerlar, adapterlar, estrodiol qurilmalar va boshqalar);
- audiovizual vositalar (ovozli kinoprojektorlar, videotelefonlar, magnitafonlar, videomagnitofonlar, yopiq tizimdagi o'quv televideniyesi);

<sup>28</sup> Технология многомерных дидактических инструментов. <https://znanio.ru/pub/746>

<sup>29</sup> Дидактические пособия для начальной школы. <https://skale.ru/magazin/folder/didaktika>

- didaktik mashinalar (axborot va ko'rsatma mashinalari, o'quv qurilmalari, ko'p funksiyali qurilmalar, simulyatorlar, maxsus qurilmalar) ;
- tasvirlar va matnlarni qayta ishlab chiqarish uchun qurilmalar (aylanuvchi nashrlar, nusxa ko'chirish moslamalari, kserograflar) ;
- ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio) ;
- elektron raqamli mashinalar ;
- ilmiy axborot texnologiyalari (klassifikatorlar va ularning fayllari, mikrofilmlarni o'qish uchun qurilmalar) ;
- dasturlashtirilgan matnlar va keng qamrovli darsliklar, 3D tasvirlash uskunalari ( stereo plyonkali proyektorlar, stereo proyektorlar, golografiya)

Ta'limda zamonaviy didaktik vositalarining faol qo'llanilishining ahamiyati shundan iboratki, ular nafaqat ma'lum pedagogik vazifalarni hal qilish vositalari sifatida foydalaniladi, balki didaktika va metodikaning rivojlanishiga turtki beradi, o'qitish va ta'limning yangi shakllarini yaratishga imkoniyat yaratadi. Metodika va didaktikaning rivojlanishida zamonaviy didaktik vositalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'quv jarayonida zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish natijasida (ta'lim sifatini oshirish; o'quv tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish; o'qituvchilar yuklamasi va metodik vaziyatlarni qayta taqsimlash, nostandart o'quv topshiriqlarini tayyorlash, ta'lim oluvchilar bilan individual ishlash va boshqalar natijasida) o'quv jarayonini o'quv-metodik vositalar bilan ta'minlashning tezkorligi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy dunyomiz shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Fan va texnologiyalar kundan-kunga ildamlamoqda. Yaratilayotgan har qanday texnika va texnologiyalar inson ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Didaktik vositalar ham o'qituvchi va murabbiylarimiz uchun beqiyos xizmatini o'tamoqda. Bu esa rivojlanayotgan jamiyatimizda ta'lim tizimining sezilarli ijobiy o'zgarishiga xizmat qilmoqda. O'quvchilarning bilim darajasi oshib, yangi bilimlarning yanada yaxshiroq o'zlashtirilishiga, o'tilayotgan fanlarining qiziqarli bo'lishiga, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham fan mashg'ulotlariga qiziqish uygo'tishiga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.

7. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. Вестник науки и образования, (15-3 (118)), 40-42.
8. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 10-12).
9. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.
10. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.
11. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. Miasto Przyszłości, 35, 388-390.
12. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. PEDAGOGS journali, 1(1), 292-292.
13. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY (pp. 102-106).
14. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. Проблемы науки, 84.
15. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (pp. 60-62).
16. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 121-123).
17. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. Universum: технические науки, (2-1 (95)), 57-59.
18. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. Научный журнал, (6 (40)), 101-102.
19. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 383-388.
20. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.

21. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 138-143.
22. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.
23. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7*.
24. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
25. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
26. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 6(1), 54-68.
27. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, 7(17), 461-466.
28. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
29. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(6), 47-51.
30. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.
31. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, 65(1), 2719-2722.
32. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
33. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 277-284. Uzbekistan, B. Qualitative properties and imagery of Colors.
34. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, ffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
35. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIGA QO'YILGAN  
ZAMONAVIY TALABLARNING XUSUSIYATI VA AHAMIYAT**

**Karimova Sevara**

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili fani o'qitishning maqsadi va vazifalari, ona tili darslariga qo'yilgan zamonaviy talablar hamda boshlang'ich sinf ona tili darsliklari bilan tanishtirish va ularni bir-biridan farqi, tahlili haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Ona tili, sinf, o'quvchi, idrok, o'qitish, boshlang'ich sinf, ma'naviyat, yurt, o'qish texnikasi, erkin fikrlash, maqsad.

Maktabda dars o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va eng zarur omilidir. Darsga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

1. *Ta'limiy talab.* Har bir dars o'quvchiga qandaydir bilim berishi lozim. Har bir darsning asosiy maqsadi ham shu.

2. *Tarbiyaviy talab.* Bu har jihatdan komil shaxsni tarbiyalash demakdir.

3. *Didaktik talablar.* Bu o'qituvchiga darsni to'g'ri tashkil qilish: dars maqsadlarini, turini to'g'ri belgilash, darsdagi u yoki bu materialni o'quvchilarga etkazib berish uslub va usullarini to'g'ri tanlash, o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash shakllari aniqlab olish demakdir.

4. *Psixologik talablar.* Bu talab shuni nazarda tutadiki, o'qituvchi o'z o'quvchilarining xarakter-xususiyatini qanchalik darajada yaxshi bilishi judda katta ahamiyatga ega. O'z o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan o'qituvchigina to'laqonli dars uyushtirishi mumkin.

5. *Gigienik talablar.* Bu o'quvchilar salomatligi haqida qayg'urish demakdir. Sinfda yorug'lik, toza havo har doim etarli bo'lishi lozim.

Boshqa fanlar kabi, ona tili o'qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog'liqdir.

Darsga qo'yilgan umumdidaktik talablar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni ona tili o'rgatishga tatbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona tili darslariga qo'yilgan talablar quyidagicha bo'ladi:

**Ona tili** — har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq[1].

Ona tili fanini o'qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o'z fikrini erkin va ta'sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek tili qonun- qoidalarini ongli o'zlashtirishga o'rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida yangi tahrirdagi DTS lari asosida o'quvchilarni ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar standart me'zon orqali aks ettiriladi:

1. O'qish texnikasi
2. O'zgal fikrini va matn mazmunini anglash



3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'quvchilar shu parametrlar asosida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1-4- sinf ona tili fanini o'qitishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi:

1. O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish;
2. O'z fikrini o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og'zaki va yozma ifodalay olish;
3. Bir ma'noni turli shakllarda bera olish ko'nikmalarini shakllantirish, so'zlardan o'rinli foydalanish;
4. Dunyoni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shuningdek boshlang'ich sinf ona tili ta'limi o'quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko'zda tutadi.

- ❖ Bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;
- ❖ Bolalarga atrof- muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish;
- ❖ Nafosat hissini tarbiyalash;
- ❖ Mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish;
- ❖ O'quv mashg'ulotlariga, bilim manbai bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish.

Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur ta'lab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilishga ko'maklashish lozim.

Mazkur maqsad va vazifalarni to'laqonli bajarish uchun o'qituvchi faqat dars bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Darsdan tashqari paytlarda ham muntazam ish olib borishi yaxshi natija beradi.

Tilni o'rganishga doir kechalar, to'garaklar, maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan qo'shimcha darslar, sinfdagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash kabilardan foydalanish kerak.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi barcha faoliyatlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi. So'ngi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, o'qitish texnologiyasi kabi tushunchalar orqali o'quvchilarda ona tiliga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bular mazmunan bir ma'noni anglatishini pedagoglar o'z tadqiqot ishlarida qayd etmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Давлетшин М.Г. Крутецкий В.А. Қобилият ва унинг диагностикаси – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 165 б.
2. Shahriddinovna, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
3. Shahriddinovna, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.
4. Shahriddinovna K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 19. – C. 183-187.

5. Shahriddinova K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 09-14.
6. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
7. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 214-218.
8. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 737-740.
9. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 161–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537>
10. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg'unboyeva, M. (2023). EDUCATION IS UPBRINGING, KNOWLEDGE IS SALVATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 164–166. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538>
11. Mamatova, . H., Karimova, S., & Mamayusupova, . Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Modern Science and Research*, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>
12. Karimova S., Habibullayeva S. THE ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PEDAGOGY //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 40-44.
13. Karimova Sevara Shaxriddin Qizi. (2023). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 43–45. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1105>
14. Mamatova H., Karimova S., Mamayusupova Z. PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 5-8.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR****Karimova Sevara**

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

[sevarakarimovaa141@gmail.com](mailto:sevarakarimovaa141@gmail.com)**Xayitboyeva Mahliyo**

Guliston davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika faniga oid qiziqishlarini orttirish, matematik iqtidorini boyitishga xizmat qiladigan matematika faniga oid masalalar va qanday qilib o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni shakllantirish masalalari bayon qilingan.

**Tayanch so‘zlar:** o‘quvchi, idrok, matematika, masala, aqliy qobiliyat, aqliy energiya, intellekt, matematik qobiliyat, metodika, matematik tafakkur.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasidagi “yangi, demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat’iyatli va omilkor bo‘lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab etmoqda” kabi g‘oyalari taklif etildi.<sup>30</sup> Bu borada ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish, barkamol shaxs tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish zaruriyati yanada kengaytirildi. Mamlakatimiz rivojlanishining yangi davrida amalga oshiriladigan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri “adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” etib belgilandi. Bundan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘yinlar orqali og‘zaki nutqlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari, yo‘llari, usullarini aniqlashtirish, muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslar faoiyatida qo‘llaniladigan metodlar va o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirishdagi o‘rni beqiyos. Mamlakatimizda o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar zamirida, ularning nufuzli xalqaro matematika olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni yegallashlari, yuqori marralarga yerishganliklarini ko‘rsatish mumkin. Albatta, yerishilgan natijalar bilan cheklanib qolmaslik, o‘quvchilar matematik qobiliyatlarini rivojlantirish va aniqlashning yangi-yangi tamoyillarini ishlab chiqish zarur. O‘quvchilardagi matematik qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga doir maxsus adabiyotlar yetishmasligi va shu bois ularni yaratish ustida tinimsiz ishlar olib borish davr talabi.

Qobiliyat muammosi bilan shug‘ullanuvchi deyarli barcha tadqiqotchilar asosiy urg‘uni tahsil oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini o‘rganishga qaratishmoqda. Xorij va mamlakatimiz olimlari aqliy qobiliyatlar tavsifnomasini “intellekt” atamasi bilan bog‘lamoqda. Ba’zan intellekt “aqliy qobiliyat” tushunchasining sinonimi sifatida ham ishlatilmokda.

“*Intellekt*” tushunchasi umumiy qobiliyat asosida hosil bo‘lgan, orttirilgan tajriba sifatida qaraladi. Qobiliyatni o‘rganishga qaratilgan har xil yondashuvlarni tahlil qilishda biz “intellekt”, “qobiliyat” va “aqliy qobiliyatlar” tushunchalaridan ham foydalanamiz. Qobiliyatni o‘rganishning tarixiy ildizlari xorij psixologiyasida test yo‘nalishining paydo bo‘lishi bilan bog‘lanadi. Aynan shu yo‘nalish doirasida “qobiliyat” miqdoriy tushuncha sifatida qaralgan. Test nazariyasi o‘quvchilarning qobiliyatlari sifat jihatdan tengligini va qobiliyatlardagi miqdoriy farqlarni aniqlash metodlarini yaratish zarurligini tan oladi.

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yil PF-60-son

Amerikalik psixolog L.Torrens qobiliyatlarga oid ko'p omilli nazariyani taklif etdi. Dastlabki aqliy qobiliyatlar sifatida 12 ta omil ajratib ko'rsatilgan: so'zlarni tushunish, tez gapirish, miyada amallarni bajarish, ma'lumotlarni yodda saqlash va ifoda etish qobiliyati va boshqalar intellektning umumiy asosini rad etgan holda, intellektni bir-biriga umuman bog'liq bo'lmagan alohida qobiliyatlar majmuasi deb qaragan.

O'quvchilarning biz taklif etayotgan matematik qobiliyati komponentlari quyidagicha:

Idrok etishni rivojlantirish: a) axborotni izlashga doir masalalar; b) sinash va xato metodikasiga oid masalalar; v) shartlari to'liq bo'lmagan masalalar; g) shartlari ortiqcha bo'lgan masalalar;

a) *axborotni izlashga doir masala.* 100 – katakli jadval berilgan bo'lib, u raqamlar (grafik tasvir, turli shakl va rangsiz geometrik figuralar, harflar jamlanmasi) bilan to'ldirilgan.

b) *sinash va xato metodikasiga oid masala.*

$14 + 2 * 4 - 9 \# 3$  ifodaning natijasi 16 bo'lishi uchun \*, # amallar qanday bo'lishi va qavslar qanday joylashishi kerak?

*Yechish.* Bunda o'quvchi natijalarni hosil qilish uchun amallar va qavslarni qo'yish ustida mulohaza yuritib, idrok qilish orqali o'zida turli usullarda sinash va xatolarni tuzatish metodidan foydalanadi, natijada ifodaning yechimini topadi:  $(14 + 2) \cdot (4 - 9 : 3) = 16$

v) *shartlari to'liq bo'lmagan masalalar.*

Do'konda jami 200 kg guruch, shakar va loviya bor. Guruch shakardan 25% ko'p. Har bir aytilgan maxsulot necha kilogrammdan? (Loviya haqida ma'lumot to'liq yemas?)

*Yechish.* Shartlari to'liq bo'lmagan masalalar turkumiga kiradi. O'quvchi masalani yechishda quyidagicha mulohaza yuritadi:  $x$  kg -guruch,  $y$  kg- shakar va loviya shartda ortiqcha, chunki guruch shakardan 25% ko'p ekanligi ta'kidlangan, lekin loviya haqida gap yo'q, shuning uchun o'quvchi uni e'tibordan chetda qoldiradi va quyidagi sistemani tuzib yechadi:

Va nihoyat guruch  $x = \frac{1000}{9}$  kg, shakar  $y = \frac{800}{9}$  kg degan yechimni oladilar. Lekin

ayrim o'quvchilar loviya nima bo'ldi? degan savolni qo'yadilar. Agar bunday bo'lmasa, bu savolni o'qituvchi qo'yishiga to'g'ri keladi. Natijada, o'quvchilar loviyani hisobga olgan holda, masala yechimini qidirishga tushadilar. Ular turli yechimlarni topishadi. Masalan: 1) shakar – 20 kg, guruch – 25 kg, loviya – 155 kg; 2) shakar – 80 kg, guruch – 100 kg, loviya – 20 kg va hokazo. O'quvchilar shu tariqa bu masalaning yechimi yagona emas ekanligiga va bunday masalalarni ham yechishga to'g'ri kelishiga ishonch hosil qiladilar. Ayrim o'quvchilar bu mulohazalarni yana davom ettirishi mumkin. Bu o'quvchilarda idrok etishni rivojlantiradi.

g) *shartlari ortiqcha bo'lgan masalalar.*

Avtomobil turar joyida 40 ta – avtomobil va mototsikl turibdi. Ularda birgalikda hisoblansa, 130 ta g'ildirak va 40 ta rul bor. Ularning soni nechtdan?

*Yechish.* Bu sharti ortiqcha bo'lgan masala bo'lib, o'quvchi birinchi navbatda 40 ta avtomobil va mototsiklni ularning g'ildiraklari va rullari soniga moslashtirishga harakat qiladi. O'quvchilar quyidagicha mulohaza yuritadilar: avtomobil turar joyida 20 ta avtomobil  $20 \cdot 4 = 80$  ta g'ildirak, 20 ta mototsikl  $20 \cdot 2 = 40$  ta g'ildirak bo'lib,  $(80 + 40) - 130 = 10$  ta g'ildirak ortiqcha yekanligini topadi. Masala o'quvchilarni matematik materialni formal idrok qilishga undaydi.

Demak ta'lim jaryonida o'quvchilarning bilim darajalari, ko'nikma va malakalari, dunyoqarashidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich ularni murakkablashtirishi, yangi mazmun va qoidalar bilan boyitishi talab etiladi. Shu asosida biz boshlangich sinf o'quvchilarida

matematik qobiliyatlarini shakillantirib rivojlantirib boramiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

15. Давлетшин М.Г. Крутецкий В.А. Қобилият ва унинг диагностикаси – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 165 б.
16. Shahriddinova, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
17. Shahriddinova, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.
18. Shahriddinova K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – Т. 19. – С. 183-187.
19. Shahriddinova K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 09-14.
20. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
21. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B6. – С. 214-218.
22. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 11. – С. 737-740.
23. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 161–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537>
24. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg'unboyeva, M. (2023). EDUCATION IS UPBRINGING, KNOWLEDGE IS SALVATION. *Modern Science and Research*, 2(8), 164–166. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538>
25. Mamatova, . H., Karimova, S., & Mamayusupova, . Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Modern Science and Research*, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>
26. Karimova S., Habibullayeva S. THE ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PEDAGOGY //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 40-44.
27. Karimova Sevara Shaxriddin Qizi. (2023). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 43–45. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1105>
28. Mamatova H., Karimova S., Mamayusupova Z. PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-8.

**INSON TABIATNING ENG GO'ZAL ESTETIK HODISASI SIFATIDAGI  
TADQIQOT OBYEKTI**

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

**Temirova Matluba Karim qizi**

G-mail:matlubatemirova95@gmail.com

Tel:+99899-679-17-36

Termiz tumani 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Xasanova Zarina Gulbayevna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson tabiatning eng go'zal estetik hodisasi sifatidagi tadqiqot obyekti ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik tarbiyani takomillashtirish jarayonida inson va unga aloqador jihatlari bilan birga yoritish masalasi ustuvor maqsad qilib olingan. Maqolada inson estetik tarbiya obyekti sifatida ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Inson, boshlang'ich sinf, tarbiya, estetika, qiziqish, atrof-muhit, o'quvchi, dars, tabiat, go'zallik, fojea, mukammallik.

Darhaqiqat, tabiat estetik qadriyat bo'lib, u ekologik inqiroz sharoitlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatda bo'lishni rivojlantirish unga nisbatan ongli va ijodiy munosabatda bo'lishni mustahkamlaydi.

Fojelik-go'zallikning, mukammallikning xushro'ylikka aylanishi. Tabiatdagi halokatli hodisalar (bo'ron, qyun, vulqon otilishi, yer qimirlashi, suv toshqinlari) ham fojeadir. Biroq tabiatning bu hodisalaridan ham estetika mazmuni mavjud, buyuk va xashamatli stixiya qudrati, faollik, harakat va o'zgartiruvchanlik barqaror dialektikasi.

Tabiatning estetik qiymati shubxasiz mikroorganizmlardan tortib to ulkan landshaftlarga qadar betakror qimmatga ega. Shuni esda tutish lozimki, tabiatning har bir ijodi - "asar" u takrorlanmas va agar u yo'q bo'lib ketsa, to'ldirib bo'lmadir. Tabiatning yaratganini tabiiy holatini, uning simmetriyasini buzsak, o'zimizni go'zallikdan mahrum qilamiz, o'z xayotimizga raxna solamiz.

Tabiatdagi eng go'zal mavjudot insondir. Uning tana tuzilishi materiya taraqqiyotining eng yuksak bosqichidir. Afsuski, inson shu paytga qadar tabiatning estetik go'zal hodisasi sifatida tadqiqot obyekti bo'lmagan. Insonning jismoniy go'zalligi bexad turli tuman va boydir (masalan, irqiy, milliy, etnik tiplar, tashqi qiyofaning individual xususiyatlari). Biroq bu go'zallikni xayotiy namayon bo'lishi va hayotiy xarakterlarisiz, ruxiy va ma'naviy; Bu jarayonni optimallashtirish tabiat estetikasiga uning ekologiyasi va unga insonning ma'naviy axloqiy munosabatda bo'lishi bilan aloqadorligi qiziqishini shakllantirishning asoslarini, mohiyatini, mexanizm va modelini ko'rib chiqish va kuchaytirishni talab qiladi.

Keyingi tizimda: ijobiy munosabat qiziqishni chuqurlashtirish va mustahkamlash barqaror qiziqish ehtiyoj. Mustaqil hissiy bilish faoliyatida ehtiyojni shakllantirish, buning uchun materialni o'zlashtirishning turli usullarini egallash.

Psixologik omilga o'smir yoshi xususiyatlariga, bilish materialining hissiy yuklamasiga, tabiatni hissiy idrok etishga, mashg'ulotlarning hissiy muhitiga, bilimlarni egallashning muhim omili hislarga qaratilishi kerak. Bu yerda sharqning mashhur pedagog olimi Farobiyning quyidagi fikrini keltirish o'rinli bo'lur edi: "Hissiyot - bu inson qalbining bilimlarini egallashida yordam beradigan vositadir" ("Mantiq to'g'risidagi traktatga kirish so'zidan").

Bilish yuklamasi, malaka va ko'nikmalar , ularni takomillashtirishni tajribiy murakkablashuvi. Foydalanish zarur bo'lgan omillar:

- jonli tabiat;
- yorqin, unutilmas, yodda qoladigan material;
- tasviriy san'atning yuksak badiiyatli asarlari;
- Xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot, ma'lumotnomalar, lug'atlar, tabiatshunoslarning qaydlari;

Ommaviy axborot vositalari, televediniya, kinomateriallar va boshqa muloqot vositalari, shuningdek, o'yin va ko'ngil ochar materiallar, shaxsiy motivlashuv va individual extiyojiy omillarni xisobga olish lozim. O'quvchilarni "o'z" qiziqishlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash uchun ularni mustaqil ko'ngilli hissiy - bilish faoliyatiga jalb qilish. Har bir mashg'ulotga qiziqarli va o'quvchilarni qiziqtiruvchi hissiy bilish estetik ekologik tarbiyani va uni ijodiy aks ettirishga turtki bo'luvchi sabablarni kiritish lozim.

Mamlakatimiz tabiati va uning estetikasini o'quvchilarga ekologik omonlikka ehtiyojmand bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida taqdim etish. Muhimi, tabiat o'quvchilar tomonidan manaviy estetik qadriyat, hissiy ijodiy individual o'ziga xos: inson esa tabiatdagi eng yuksak estetik hodisa sifatida idrok etilsin. Navoiyning inson to'g'risidagi "inson Yaratuvchining eng oily va qimmatli ne'mati, tabiatning eng mukammal ijodi, degan fikrini yodga olish o'rinlidir".

Bu jarayonda o'quvchilarni tabiat go'zalligining nafaqat ekologik hodisalarga, balki insonning o'ziga ham bog'liq ekanligi to'g'risida fikrlash, xulosa yasash va hukm chiqarishga yo'naltirish zarur. Bunda obyektning "Inson! Sen tabiat shoxi bo'lib tug'ilding, biroq har qadamingni o'z vaxshiyiligidan bilan nishonlading. Yer shari ingraydi. Inson - go'zallik, ezgulik devi - eng birinchi dushman ", degan satrlari o'quvchilar qalbini hayajonga soladi.

O'quvchilarni tabiat estetikasi va ekologik tarbiya to'g'risidagi bilimlari, muayyan ko'nikma va malakalarini mustaqil ravishda takomillashtirishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Maskur jarayonni quvvatlantiruvchi optimal mazmun, shakl, uslub, usul, vosita, sharoit va uslubiyatlar zarur. Bunday e'tibor albatta:

Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiat estetikasiga axloqiy munosabatda bo'lish bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lgan qiziqishni shakllantirishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiq etilayotgan jarayonni tabiatga, uning estetikasiga insonning tabiat go'zalligining gullab yashnashida tutgan o'rniga, o'quvchilar tomonidan tabiat estetikasini ko'rsatilgan omillar bilan o'zlashtirishga ichki extiyojni rivojlantirishga ijtimoiy shakllantiruvchi munosabat sifatida ko'rib chiqiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNI ESTETIK QARASHLARINI O 'STIRISHDA TABIATNING O 'RNI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 1, No. 2, pp. 27-34).
2. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O 'RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 218-223.
3. XX, P. M. (2022). The Importance of Developing the Spiritual Thinking and Capacity of Primary School Students. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 1(2), 6-12.
4. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI ESTETIK QARASHLARINI SHAKLLANTIRISH. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 26-31).
5. Boymatovna, M. M. T. (2023). O'QUVCHILARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 30-33.
6. Qizi, T. M. K. (2023). ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 56-60.
7. Temirova Matluba Karim Qizi. (2022). 1-4-SINFDA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 1(2), 179–185.
8. Boynazarova , N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH. *Interpretation and Researches*, 2(1). **извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/960>**
9. Erdanova Zamira 2023/5/30 AL-HAKIM AT-TERMIZIY QARASHLARIDAN OLIY TA'LIMDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI *Journal of Universal Science Research* 1, 5, 1466-1471



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASINING  
DIDAKTIK TAMOYILLARI****Daminova Dilbar Melimurodovna**

Termiz davlat pedagogika institute "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi.

E-mail: [dilbardaminova9@gmail.com](mailto:dilbardaminova9@gmail.com)

Surxondaryo viloyati Qo'mqurg'on pedagogika kolleji deriktori

**N Toshpo'latov**

**Annotatsiya** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim didaktikasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mulohaza yuritilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, boshlang'ich, didaktika, tushuncha, xususiyat, bilim, ko'nikma, samara, malaka, yondashuv, o'qitish, metod.

Matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun to'g'ri harakatlanishi va tug'ri qarorlar qabul qilish uchun imkon yaratadi, irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi matematik masalalarni mulohaza orqali yechkani kabi to'g'ri mulohaza yuritishga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2019- yil 9- iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387- sonli Qarori, 2020-yil 7- maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ4708-sonli Qarori, 2020- yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

69 Bu qaror va farmoishlardan yana bir bor xulosa qiladigan bo'lsak matematika faniga juda katta e'tibor berilmoqda. Shu jumladan boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika savodxonlik rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

**Zamonaviy boshlang'ich ta'lim.** Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? Bola 1-4-sinflarda qanday bilimga ega bo'lishi lozim? O'quvchilarga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak? degan savollar boshlang'ich ta'lim tizimi oldidagi asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o'qitish ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirdi va oshirmoqda.

Maktab ta'limi oldiga tamoyili yangi maqsadlarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini didaktik tamoyillari.

Matematik darslarida asosiy didaktik maqsadlar.

Har bir darsdan turli xil didaktik maqsadlar ko'zlanadi. Ular orasida bittasi bosh maqsad bo'lib hisoblanadi va uni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi.

Har bir alihida darsning maqsadi darslar tizimining maqsadini aniqlab, uning yordamida o'qitilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchilarga ochib beradi.

Bu holda yangi tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish bo'lsa, ikkinchi holda tanishtirilgan tushunchani kengaytirish va chuqurlashtirish, uchinchisida, biror malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, to'rtinchidan, bilim, malaka, va ko'nikmalarini tekshirish vah.k.bajariladi. Har bir darsda yuqorida aytilganlarning bir nechtasi yoritilishi mumkin. O'tilganlarni takrorlashdan oldin o'tilgan darslarni yangi tizimga solish, shu bilan bilimlarini tekshirishni o'z ichiga oladi.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilishi lozim bo'lgan tamoyillar.

1) onglilik tamoyili

2) ko'rsatmalilik tamoyili

3) ilmiylik tamoyili

4) ketma-ketlik tamoyili

5) puxta o'zlashtirish tamoyili

6) boshlang'ich maktabda algaritmlar va algaritmlarga o'rgatish metodikasi]1.15-bet.

Har bir darsdan asosiy maqsad-yangi mavzu mazmunini o'quvchilarga ochib berishdan iborat. Har bir matematika darsida turli xildagi didaktik maqsadlar amalga

oshirish mumkin: uy ishini tekshirish, yangi mavzuni bayon qilishda, o'tilgan mavzuni takrorlashda, og'zaki hisoblashga doir maxsus mashqlar o'tkazilishi mumkin. Darslarning qisimlari asosiy didaktik maqsadga qarab o'zaro boshlangan bo'lishi kerak

Har bir darsda turlicha didaktik maqsadlar ko'zlanadi. Ular orasida bittasi bosh maqsad hisoblanib, uni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi.]222.18-bet.

Darsning asosiy didaktik maqsadini tushuntirish va asoslash. Bundamavzu bo'yicha darslar sistemasini tahlil qilingan darsning o'rnini va roli, boshqa darslar bilan bog'liqligi, darsning mazmunini baholash va to'g'ri tushuntirilishi, uning strukturasi, ishdagi metod va usullari ko'rsatiladi.

#### ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. [PF-4947-son 07.02.2017. \(lex.uz\)](#)

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PF-4708- sonli "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF – 5712- sonli Farmoni. PF-5712-son 29.04.2019. (lex.uz)
5. M.E. JUMAYEV Z.G'. TADJIYEVA BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI TOSHKENT-2005
6. "Fan va texnologiya" created with pdfFactory Pro trial version [www.pdffactory.com](http://www.pdffactory.com)  
2 BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI.
7. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI. M. Jumayev. Toshkent. 2022.
8. Yunusova D. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2011.
9. O'rinboyeva L. [va boshq.]. Matematika 3-sinf [Matn]: darslik /– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
10. Jumayev. M.E Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik) Toshkent. „Turon-Iqbol“, 2016 yil
11. Jumayev M.E. Tadjiyev. Z.G' Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Yu uchun o'quv qo'llanma ) Toshkent. «O'qituvchi», 2004 yil.
12. Jumayev. M.E Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. (OO'Yu uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. «Yangi asr avlodi», 2006 yil.. Erdanova Zamira Olimovna 2023/10/8 CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM Academia Repository 4, 10, 1-9
13. Erdanova Zamira Olimovna 2023/10/8 THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM World Bulletin of Social Sciences 27, 18-22
- 14 Erdanova Zamira 2023/5/30 AL-HAKIM AT-TERMIZIY QARASHLARIDAN OLIY TA'LIMDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI Journal of Universal Science Research 1, 5, 1466-1471
15. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-09. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
16. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

17. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

18. Boynazarova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH. *Interpretation and Researches*, 2(1). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/96>

19 Dilbar Daminova. (2023). METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 87–92. Retrieved from <https://www.oarepo.org/index.php/oa/article/view/3555>

20. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Open Access Repository*, 4(3), 971–976.

21. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). ISSUES OF MATHEMATICAL LITERACY DEVELOPMENT IN WORLD SCIENCE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 307–311. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/4787>

22. Daminova, D. (2023). TIMSS TADQIQOTLARIDA MATEMATIK BILIM VA KO'NIKMALARNI BAHOLASH. *Interpretation and Researches*, 2(1). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1001>

23. Dilbar Daminova. (2023). METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 87–92. Retrieved from <https://www.oarepo.org/index.php/oa/article/view/3555>

## IMPORTANCE OF TRANSFORMATION PROCESS IN ISLAMIC BANKS

**Gulamova Iroda Ziyovuddin qizi**

3rd year student of "Banking and audit" Tashkent state university of economics

[iroda.gulamova@tsue.uz](mailto:iroda.gulamova@tsue.uz)

**Abstract:** This paper explores the impact of globalization, digitization, and Islamic fintech on the evolving landscape of global finance, with a focus on Islamic banking. It discusses the growth of Islamic banking driven by the Muslim population's rise, the role of state intervention, and the promising future of Islamic financial technologies. The challenges, including regulatory issues and the need for skilled personnel, are addressed. The paper emphasizes the potential of Islamic fintech to attract millions of new customers and its significance in providing transparent and ethical financial solutions. The study concludes by highlighting the importance of preparedness, regulatory compliance, and collaboration between traditional and fintech institutions for sustainable development in the Islamic financial sector.

**Keywords:** Global finance, Islamic banking, Islamic fintech, globalization, digitization, regulatory challenges, financial inclusion, Sharia compliance, technology adoption, Muslim population growth.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning darsni yuqori o'zlashtirishlarini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. Orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.
4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltirib turadi. Ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini hamda maktab miqiyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, kuni uzaytirilgan guruhlarning tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfdagi dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarini: sinf jurnali, o'quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi. Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin, sinf rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o'ynaydi. Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiylikining darajasiga bog'liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam egallab borishi bilan o'zining bilimini, ongini oshiradi. Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining

shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatleri bilan ham ta'sir o'tkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobilyati juda ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon-dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat, sipolik va vazminlik kabi fazilatlarining bo'lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo'shilsa, ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir. Sinf rahbarlaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, sinf rahbarining o'zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy barkamollikka mos bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pchiligiga asosiy sabab, bolaning oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi xarakterida hamisha ham namoyon bo'lavermasligidadir. So'nggi yillarda sinf rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda o'quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi. Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o'quv yurtining sinf rahbariga hozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini har tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida o'quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar qo'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir sinf rahbarining asosiy vazifalarni xisoblanadi, shunday qilib. Alohida sinf birlashib o'quv yurtini tashkil etadilar. Alohida sinf jamoalari qo'lga kiritgan ta'lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o'quv yurti jamoasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Jamiyatda o'qituvchi, birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ularga har tomonlama bilim berishdan iborat bo'lgan faxrli hamda ma'sul vazifalarni bajaradi. Yurtboshimiz ham ta'lim-tarbiyani dolzarb masala sifatida ko'tarmoqda. Yani, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy taffakurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat degan fikrlari yana bir bor boshlang'ich talim o'qituvchilariga masuliyat yuklaydi va vazifalarni ado etish pedagogning alohida ijtimoiy roli va uning jamiyatdagi faxrli o'rnini belgilaydi. Jamiyatda o'qituvchi faoliyati yuksak baholanmoqda va uning obro'si yuksaltirilmoqda. Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri-bu o'quvchining o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o'quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning sinf jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish sinf rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11), 90-93.

2. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. In *Conference Zone* (pp. 97-98).

3. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 95-96).

4. Khabibullayevna, H. M. (2021). Scientific-Theoretical Fundamentals Of Improving The Methodological Training Of Future Primary School Teachers To Teach The Subject Of Education. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
5. Khaydarova, M. H. (2020). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATION COMPEPENCIES IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Восточно-европейский научный журнал*, (5-6 (57)), 37-39.
6. Khaydarova, M. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
7. Xaydarova, M. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O ‘QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Interpretation and researches*, 2(1).
8. Shamsiddinova, M., & Xaydarova, M. (2023). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN INTERFAOL METODLAR. *Interpretation and researches*, 1(1).
9. Xaydarova, M. (2023). TARBIYA FANINI O‘QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).
10. Haydarova, M. (2023). TARBIYA FANINI O‘QITISHGA METODIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH. *Interpretation and Researches*, 1(1).
11. Хайдарова, М. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(10).
12. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDagogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.
13. Jahonova, X., & Xaydarova, M. (2023). TA’LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASI. *Interpretation and Researches*, 1(1).
14. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 TADQIQOTIDA RAQAMLI TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA JAVOB FORMATLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).
15. Djumayeva, H., & Turayev, A. (2022). METHODOLOGY OF COMBINATORY PROBLEMS SOLVING IN THE TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 1224-1228.

### **BOSHLANG‘ICH SINF “TARBIYA” DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI**

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrası v.b dotsenti ( PhD)

**Xaydarova Mahliyo**

, 3-kurs talabasi **Mirzayeva Nodira**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya jarayonining mohiyati inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlari va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-

atvorning andozalarini o'zgartirish mamlkatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuch ekanligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ta'lim, shaxs, o'quvchi, amaliyot, milliy qadriyat, interfaol metodlar, islohotlar.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlarning asosiy mazmun-mohiyatida, olib borilayotgan chora-tadbirlarning, keng ko'lamlı ishlarning tub zamirida, albatta, "Inson omili" yotadi. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan mamlakatimiz hayotida tub burilishlarni amalga oshirish, Vatanimizda yashab o'tgan buyuk darg'alarimiz, olim-u fuzalolarimizni ishini davom ettirish maqsadida yoshlar bilan birgalikda III Renesansni tamal toshlarini qo'yishdek buyuk mas'uliyatli vazifani har bir soha vakili, o'z yurtining jonkuyar, fidoiy kishilari bilan birgalikda amalga oshirish masalasi o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yana chuqurroq namoyish etadi.

Mamlakatimizda ta'lim mazmuni, uning samaradorligiga katta ahamiyat berilib, davlat ta'lim standarti o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi ko'rinishlari tajriba sifatida amaliyotga joriy etilmoqda.

Maktablarda joriy etilgan "Tarbiya" darslarini loyihalashda, uning asosiy g'oya va maqsadlarini o'quvchilar ongiga to'liq singdirishda darslarni o'quvchilar yoshi, fiziologik holatidan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchi shaxsiga individual yondashish asosida darslarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amalda qo'llanilayotgan "Tarbiya" kitoblarini ko'rib o'rganib chiqadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf (A2), to'qqizinchi sinf (A2+), o'n birinchi sinf (V1) bitiruvchisiga qo'yiladigan minimal malaka talablari, kompetensiyalar, baholash tartibi va o'quv dasturlariga mosligini hamda har bir bosqich ma'naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviy, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o'z ichiga olganligini ko'ramiz. Har bir bosqichda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash; O'quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o'zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo'lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo'llab-quvvatlash; bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish kabi bir qator g'oyalarni ko'rishimiz mumkin. Aynan hozirgi kunda biz pedagoglardan talab qilinayotgan vazifalar quyidagilardir:

-o'quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma'naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish; bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

-dunyo dinlarining ko'p asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida zo'ravonlik, terrorizm va ekstremizm g'oyalari targ'ib etilmasligini tushuntirish;

-shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma'rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish; ma'naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo'shliqlar mavjud bo'lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo'lgan yoki profilaktik ro'yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash kabi vazifalarimizda munosib ko'makchi qo'llanma ekanligi quvonarli holdir.

Tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli

tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarga sifatli bilim berish, ularni to'g'ri tarbiya yo'liga yo'naltirish, zarur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko'mak ko'rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma'naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan estetik jihatdan zamonaviy bezatilgan, qiziqarli va psixologik-pedagogik materiallarga boy.

O'quv-metodik majmua ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi; o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi; o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga qaratilganligi; umumiy o'rta ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi; mavzularning mazmunan izchilligi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, media-mahsulotlardan unumli foydalanilganligini e'tirofga sazovordir.

Rasmlar ko'rinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar, infografikalardan iborat mediamahsulotlar bilan bezatilganligi, o'quvchilar psixo-fiziologik rivojlanish darajasiga mos yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta'riflar va shu kabi lug'at ko'rinishida ifodalanganligi fanning ta'sir doirasini yanada kengaytirib beradi.

Fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirilganligi, o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlanganligi, o'quv fani mavzulari adabiy til qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda oddiy, sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinganligi, mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilingan holda mazmunan yoritilganligi fanning o'zlashtirilishini yanada mustahkamlaydi.

O'zbek xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilganligi, savol va topshiriqlarning aniq ifodalanganligi, o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilganligi o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yanada ko'maklashadi. Bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalinishiga, sanalarni keltirishda noaniqlikka yo'l qo'yilmaganligi, o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga yo'naltirishga oid matn va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik, mantiqiy va innovatsion tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish topshiriqlarini qamrab olganligi bolaning ijtimoiy hayotga moslashishga va dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini chuqur o'zlashtirishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishga, katta ijodiy xulosalar chiqarishlariga ham o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi.

Tarbiya darslari ijodiy, noan'anaviy suhbat, o'yin, oilada, tabiatda, bahs, munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda nimalarga e'tibor beriladi:

1. Darsdagi ta'lim-tarbiya maqsadining aniqligi;
2. Pedagogik texnologiya mazmunining hozirgi davr talabiga mosligi;
3. Pedagogik texnologiya jarayonida didaktik qoidalar;
4. O'qituvchining mahorat texnikasi.

Pedagogik texnologiyani qo'llashda o'qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik ta'lim-tarbiya amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish;
2. Ta'lim-tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish. O'quv dasturlariga ham befarq bo'lmasdan sinchkovlik bilan o'rganish;
3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi ijodlarni o'rganib borish;
4. O'quv jarayonida o'quvchi bilan o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish; Ilmiylik - yangi usul vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish;
5. Buning uchun bolalarni dastur mavzulari asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir;
6. Ilg'or tajribalarga suyanish;
7. Dars maqsadining aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o'quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyati, darsda "Xalq og'zaki ijodi" rubrikasida: maqol, ertaklardan o'rinli foydalanishi, o'yin, test savollari, ko'rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish;
8. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun har bir o'qituvchitarbiyani o'rgatishda nazariy chuqur bilimga ega bo'lishi zarur. Demak, tarbiya darslarini turli shakllarda tashkil etish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tarbiya darslarini turli shakllarda tashkil etish mumkin:

- O'yin, suhbat, uchrashuv, bahs, oilada, jamoat joylarida, mahallalarda tadbirlar uyushtirish. Har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyli va zamonaviyligi bilan odob-axloq tushunchalarini tarbiyalashga qaratilishi.
- O'quv mashg'ulotlarini audio, video, jonli suhbat shaklida va ko'rgazmali tashkil etish.
- O'qituvchini yangi texnologik mahoratga ega bo'lishi va ijodkorligi.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishga qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning saviyasi, jamoa xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun, balki, kompyuter bilan ishlash, balki, film (tarqatma material, chizma, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bulaning barchasi o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq. Shu bilan birga o'quv predmetning o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiy o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak.

Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun dars turi, maqsadi, mavzusiga to'xtalishimiz tabiiy. Eng avvalo, mana shu darsning texnologik xaritasini tuzib olishimiz darkor. Chunki darsning texnologik xotirasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi, ijodkorligi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lamasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija bo'lishi lozim. Darsni tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchini darsning kengaytirilgan ishlanmasini tuzishdan, yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining hamda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining barcha qirralari o'z aksini topadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11), 90-93.
2. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. In *Conference Zone* (pp. 97-98).
3. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 95-96).
4. Khabibullayevna, H. M. (2021). Scientific-Theoretical Fundamentals Of Improving The Methodological Training Of Future Primary School Teachers To Teach The Subject Of Education. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
5. Khaydarova, M. H. (2020). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATION COMPEPENCIES IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Восточно-европейский научный журнал*, (5-6 (57)), 37-39.
6. Khaydarova, M. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
7. Xaydarova, M. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O 'QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Interpretation and researches*, 2(1).
8. Shamsiddinova, M., & Xaydarova, M. (2023). INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN INTERFAOL METODLAR. *Interpretation and researches*, 1(1).
9. Xaydarova, M. (2023). TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).
10. Haydarova, M. (2023). TARBIYA FANINI O'QITISHGA METODIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH. *Interpretation and Researches*, 1(1).
11. Хайдарова, М. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ. *Ижтимоий-гуманитар*


фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(10).

12. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDagogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.

13. Jahonova, X., & Xaydarova , M. (2023). TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASI. *Interpretation and Researches*, 1(1).

14. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 TADQIQOTIDA RAQAMLI TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA JAVOB FORMATLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).

15. Djumayeva, H., & Turayev, A. (2022). METHODOLOGY OF COMBINATORY PROBLEMS SOLVING IN THE TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 1224-1228.





**Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida amaliy ishlarni tashkil etishning metodik asoslari**

Djumayeva Mohigul Mamanazarovna,

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi.

Jumayeva Bahor Ergashovna

Qumqo'rg'on tumani 15-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati atroflicha yoritib berilgan hamda sinfdan tashqari ishlar jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiat, tabiiy fan, metod, amaliy ish, tajriba, ekskursiya, obyekt.

**Резюме.** В данной статье подробно раскрыто значение практической деятельности при преподавании естествознания в начальных классах, а также рассмотрены эффективные методы организации практической деятельности по приобщению детей к природе в процессе внеклассной деятельности.

**Ключевые слова:** природа, естествознание, метод, практическая работа, опыт, экскурсия, объект.

**Summary** In this article, the importance of practical training in the teaching of natural sciences in elementary grades is described in detail, and effective methods of organizing practical work in introducing children to nature in the process of extracurricular activities are discussed.

**Key words:** nature, natural science, method, practical work, experience, excursion, object

Barchamizga ma'lumki, tabiat bu bizni o'rab turgan barcha narsalar, borliq, hayvonot va o'simliklar dunyosi. Biz insonlar yashar ekanmiz har qadamda tabiat unsurlaridan bo'lgan deyarli barcha narsalarni ishlatamiz. Tug'ilganimizdan beri tabiat qo'ynida ulg'aydik, uning barcha ne'matlarini totib kelmoqdamiz. Tabiatni asrab -avaylashimiz zarur. Tabiatda barcha narsa bir-biriga uyg'un. Unga ziyon qilsak barchasi o'zimizga qaytadi. Sababi biz tabiatning ajralmas qismimiz. Tabiatni onamizga qiyoslab "Ona Tabiat" deb ataymiz. Shuning uchun Tabiatni onamizni asragandek asraylik. Tabiat haqidagi bilimlarni maktablarda tabiiy fan darsligida o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatadi. Tabiiy fan boshlang'ich sinf o'quvchilariga 1-sinfdan darslik sifatida o'tilib boshlaydi. O'quvchilar dars davomida nazariy bilimlarni egallaydilar. O'quvchilarning bo'lajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o'rin egallaydi.

Tabiiy-ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo'lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda, ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o'ynab kelgan va kelmoqda.

Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi. Amaliyot-haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligini amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi. Bilim odamlar miyasida o'z -o'zidan paydo bo'lmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bo'lib, bu o'z navbatida odamlarning o'zaro munosabatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy-tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi. [1]

1. Amaliyot bilish jarayonining rivojlantiruvchi omil. U nazariy bilimlarni umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yo'l qo'ymadim.

2. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir.

3. Amaliyot bilish jarayonining haqiqiy ekanligini ko'rsatuvchi mezondir.

Tabiatshunoslikdagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo'lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi. Bilishning aniqligi muayyan obekt haqidagi ma'lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo'lsa, haqiqat ham bo'lishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv 100°C da qaynaydi. Lekin bosim o'zgarsa yoki og'ir suv bo'lsa, u aniq -konkret hisoblanadi. Ma'lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o'zgarishi mumkin. G'oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallangan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi. Amaliy uslublar qo'llanilishi, o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishiga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga [2]:

1. O'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi .
2. Rasm chizish .
3. Tabiat ob'ektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari.
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari .
5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish )kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak.

Amaliy darslarda o'quvchilar bilimini, tezkorligini, salohiyatini yanada oshirish uchun didaktik o'yinlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

"So'z top" o'yini . Bu metoddan darsning hamma qismlarida foydalanishimiz mumkin. O'qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir so'z aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar, o'qituvchi boshlagan so'z qaysi harf bilan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlagan so'zni aytishi kerak.

Masalan: tulki-ilon-ninachi-it-tipratikan-nortuya-yalqov(panda)-ayiq-qarg'a-ari va hokazo. Bu usul o'quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

"Klaster" usuli . Bu usul o'quvchiga berilgan mavzu bo'yicha erkin o'ylash va fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi . Bu usulda o'quvchi nimani o'ylagan bo'lsa, shuni aytadi va yozadi. Yozilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu sinfning har bir o'quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirib, ular o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. "Klaster" usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o'quvchini darsga

qiziqtirib, shu mavzu bo'yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'tkaziladi. Masalan, O'lkamizdagi "uy va yovvoyi hayvonlar" mavzusi.

"Mozaika", ya'ni mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo'laklarga bo'linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo'lakchalarni bir butun ko'rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

"To'xtab o'qish" usuli. O'qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga tegishli bo'lishi zarur. Yoki o'quvchi matn o'qish jarayonida to'xtalib, nima haqida o'qiganligi so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

"Zanjir" usuli. Bu usulni she'r, topishmoq, maqollar berilgan darslarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar tartib bilan ketma-ket berilgan she'r misrasi yoki topishmoq qatorini aytadilar. Bu usul qo'llanganda o'quvchi uyalib qolmasligi uchun berilgan she'r, maqol, topishmoqni yod olishga majbur bo'ladi.

"Rasmi rebus" o'yini. Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga rasmlar tarqatadi. Berilgan rasmlar nomining bosh harflaridan hayvon yoki qushlar nomi kelib chiqishi kerak. Masalan, It, laylak, ohu, ninachi-non, anor, rediska, chinni gul, arpa-archa.

"Kim tez bajaradi" o'yini. O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga 5 tadan hayvonlar yoki qushlar rasmlari teskari qilib beriladi. Belgilangan vaqt ichida (1-2) daqiqada o'quvchilar hayvon yoki qushlarni yovvoyi yoki uy hayvonlari guruhlariga ajratadilar. Topishmoqni birinchi bo'lib xatosiz bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

"O'z guruhingni top" o'yini. O'quvchilarga rangli buklangan qog'ozlar tarqatiladi. Ularga hayvon va parrandalar nomi yozilgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda qanday tovush chiqarsa, ular ham shunday tovush chiqarib o'z guruhini topishlarini tushuntiradi.

1. Mushuk (miyov-miyov). 2. Kuchuk (vov-vov). 3. xo'roz (qu-qu-qu-qu).

5. Sigir (mo'-mo'). Guruhga bo'linib olganlaridan so'ng guruhga tegishli hayvon yoki parrandalar haqida bilganlarini so'zlab beradilar.

Uzoq vaqt davom etadigan kuzatish va tajribalar uchun jonli tabiat burchagi tashkil qilinishi kerak, u yerda hayvon va o'simliklarni saqlash va zaruratga qarab ulardan tabiatshunoslikni o'rganishda foydalanish mumkin. Burchak shuningdek o'quvchilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun moddiy baza hisoblanadi. Bu yerda ular yilning istagan vaqtida ish olib borishlari mumkin ekskursiya jonli tabiat burchagi tashkil etishning boshlanishi ko'radi.

Boshlan'ich sinf o'quvchisi o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlarni tashkil qila borib, iqlim sharoitlarini, maktabning hududida joylanishini hisobga olishi va barcha masalalarni biologiya o'qiluvchisi bilan kelishib olishi lozim. Tajriba yosh tabiatshunosning qishloq xo'jaligi tajribalari va qoshimcha amaliy ishlari bazasidir. Chunki u yerda tabiatshunoslik darslarida o'rganganiladigan o'simliklar o'stiradi.

Boshlan'ich sinfdan boshlab o'z o'lkalarini, o'z joylarini o'rganadilar, tabiat ustida kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Boshlan'ich maktabda o'qish vaqtida ularda boy aniq material to'planadi va material o'lkashunoslik burchagida joylashtiriladi. Vaqt o'tishi bilan o'lkashunoslik burchagida boshlan'ich maktabni ilgari bitiruvchilari chiqqan eng qimmatli materiallar to'planib boradi, undan tabiatshunoslikni o'qitishda sistemali ravishda

foydalaniladi .O'lkashunoslik burchagi tabiatshunoslik xonasida yoki alohida sinfda barpo etiladi. Material uch bo'limga ajratiladi :bizning o'lka ,ob-havo va tabiat belgilari.

Xulosa qilib aytganda, Science biologiya, geografiya va fizika fanlarining integratsion tarzida o'qitilishini ta'minlaydi. Amaliy mashg'ulotlar darsiga o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi tavsiya etiladi. U amaliy mashg'ulotlar bajarish jarayonida paydo bo'ladigan muammolarni atroflicha tushuntirib berish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Amaliy mashg'ulotlar tabiiy fanlar darslarini sifatli o'tilishini, o'quvchilar bilimini chuqurlashtirib mustahkamlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.D.Sharipova , D.P .Xodiyeva , M.K.Shirinov .Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. Toshkent, "Barkamol Fayzulla media"nashriyoti ,2018 yil

2.M.Nuriddinovna, "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi". Toshkent ,O'qituvchi 2005 yil

3.G.M. Sayfullayev , Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Buxoro 2020 yil

4. Djumayeva, M. (2023). BOSHLANGICH SINFLARDA TABBIY FANLARGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH. Interpretation and researches, 1(1).

5. Djumaeva, M. (2023). SPECIFIC HISTORICAL GEOGRAPHY OF THE FACTORS OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT IN THE EAST. Science and innovation, 2(C3), 22-26.

6.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

7. Boynazarova , N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH. Interpretation and Researches, 2(1). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/960>

8.Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHNING METODIK ASOSLARI**

**Djumayeva Mohigul**, Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Qurvonboyeva Mohinur**, Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

**ANNOTATSIYA** Maqolada boshlag'ich ta'lim tabiiy fanlar darslarida sinfdan tashqari ishlar jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** amaliy uslublar, retseptor, tajriba, obyekt, operatsiya, ekskursiya, gerbariy, granit, akvarium, terrarium

**ABSTRACT:** The article reflects on effective methods familiarization of students at the lessons of natural history and extracurricular activities organization and implementation of practical work

**Keywords:** Practical methods, receptor, experiment, object, operation, excursion, herbarium, granite, aquarium, terrarium

Tabiat-bitmas va tunganmas xazinadir. Insonlar, qolaversa bolalar tabiat bilan uzviy bog'liq jarayonda yashaydi. O'rta Osiyo xalqlari qadimdan o'z ekologik qarashlariga ega. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmalar, Avesto" xalqimizning bebaho mulki hisoblanadi. Bu ilmiy va diniy kitob bundan 30 asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy merosidir. „Avesto” tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir. „Avesto”da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan. O'rta asrlarda ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa olimlar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni asrash haqida qimmatli fikrlarni aytganlar. Shu o'rinda Abu Rayhon Beruniy shunday degan: „Erkin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsa-da, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu hol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordi-yu Yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar”.<sup>1</sup> Tabiat bilan tanishtirishning pedagog asoschilaridan S.A.Veretenikova “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi” kitobida, har bir yosh guruhidagi bolalarni yil fasllariga qarab tabiat bilan tanishtirish metodikasini asoslab bergan.

O'quvchilarning bolajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim orin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo'lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o'ynab kelgan va kelmoqda. Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o'rganuvchi fan bolib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi. Amaliyot - haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi. Bilim odamlar

miyasida oz-ozidan paydo bolmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bolib, bu oz navbatida, odamlarning o'zaro munosabnatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol oynaydi. Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy - tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yol qoymaydi. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir. Amaliyot bilish jarayoninig haqiqiy ekanligini ko'rsatuvchi mezondir. Tabiatshunoslikdagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bolib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo'lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi. Bilishning aniqligi muayyan obekt haqidagi ma'lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo'lsa, haqiqat ham boshqacha bolishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv 100oC da qaynaydi. Lekin bosim o'zgarsa yoki og'ir suv bolsa, u aniq -konkret hisoblanadi. Ma'lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o'zgarishi mumkin. G'oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi. Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi. Amaliy uslublarning turlariga [2]

O'simliklarni yoshini tabiatda nafaqat yillik halqalardan balki o'simliklarni yillik shoxlanishiga qarab aniqlash mumkin. O'simlik bahordan kuzgacha o'sish davriga ega, kuzdan bahorgacha tinim davri boladi. Bu osimlikning bir yoshi demakdir, ikkinchi yilda yana o'sish, shoxlanish sodir bo'ladi. Shoxlanish orasidagi masofa o'simlikning bir yoshi hisoblanadi, buni o'quvchilarga tabiatda tushuntirish talab etiladi. O'quvchilar amaliy bilimga ega bo'ladilar, daraxtlar yoshini kesmasdan turib ham aniqlash mumkinligini bilib oladilar. Bu ekologik, hamda ilmiy tushunchalarni shakllantiradi. Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari ti'imida amaliy ishlar tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda katta rol o'ynaydi. Amaliy ishlar o'quvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga o'rgatish metodidir. Amaliy ishlarga o'quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig'ish, maktab oldi yer maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko'rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi. Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilar "Atrofimizdagi olam" darsligini o'qish jarayonida bevosita kuzatishlar yo'li bilan o'rganadilar. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi har xil jihozlardan va avvalo ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Ko'rgazmali qurollarga tabiiy yoki haqiqiy ob'ektlar kiradi [3]. Tabiiy qurollar-tabiat jismlaridir. Ular o'rganilayotgan mavzular to'g'risida, bolalarda tabiat haqida tushunchalar hosil bo'lishiga imkon beradi. Chunki sinfda jonli tabiatni o'rganish uchun har xil xona o'simliklari hamda o'z joylarining daraxtlari uchun xos bo'lgan shoxchalar, barglar, gullar, meva va urug'lar bolishi mumkin. Tabiatshunoslik darslarida tabiat burchagida o'stirilayotgan o'simliklardan, shuningdek gerbariy va ekskursiyadan olib kelingan o'simliklardan foydalaniladi. Shuningdek, tabiiy ob'ektlardan hayvonlarni o'rganishda ham foydalansa boladi. Ko'pgina hayvonlarni

bolalarga sinfda (jonli tabiat burchagida) ko'rsatish mumkin bo'lsa ham ekskursiyalarga afzallik berish kerak boladi, chunki bunda o'quvchilar faqat ularning tashqi ko'rinishini emas, balki xulq-atvorlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tirik hayvonlar bo'lmaganda ularning chuchelalari (tulumlari), mulyajlari yoki fotosuratlarini va rasmlaridan foydalanish mumkin. Jonsiz tabiatni o'rganishda ham tabiiy tarqatma material, masalan, har xil rangdagi granit, kvars, dala shipati, loy, qum, kal'sit (bo'r, marmar, ohak, har xil toshko'mir, temir, mis rudalarining namunalari, shuningdek metallar hamda qotishmalar) temir, cho`yan, polat, alyuminiy, tuproq namunalari va boshqalar bo'lish mumkin. O'quvchilarga bevosita qabul qilish mumkin bo'lmagan tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida aniq va to'g'ri tasavvurlar hosil qilish uchun ko'rsatiluvchi qurollardan foydalaniladi. Tabiatshunoslik bo'yicha devoriy o'lkashunoslik suratlaridan, foydalanish mumkin. Ular tabiatning o'lkashunoslik obektlari to'g'risida tasavvur va tushunchalar shakllantirishga yordam beradi. Sinflarda bosma rasmlari, ularni ifodalovchi matnlari, o'quvchilar uchun savol va topshiriqlari bo'lgan "Kuzatishlar kundaliklari" dan foydalanish zarur. Tabiatshunoslik materiallarini amaliy o'zlashtirishda xarita-sxemalarni chizish katta o'rin tutadi. Ularni qo'llanish yo'lida (ufq tomonlarini aniqlashda) maktab hovlisidagi narsalarning joylashishining oddiy rasmini chizish birinchi qadam bo'ladi.


#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-yil SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 1071
3. A.Baxronov, Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
4. A.Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.
5. G.M.Sayfullaev. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma Buxoro-2020.
6. G.M. Sayfullaev. Biologiya promislovix xishnix vidov rib, Nizovya basseyna reki Zarafshan. Buxara-2020
7. Сафарова М.С., Хамитова Ф.А. Непосредственное влияние заболеваний челюстно-лицевой области и зубов на психику и внутренние органы// Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации . – 2015. - №2 – С. 4-6.
8. Djumayeva, M. (2023). BOSHLANGICH SINFLARDA TABBIY FANLARGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH. Interpretation and researches, 1(1).
9. Djumayeva, M. (2023). SPECIFIC HISTORICAL GEOGRAPHY OF THE FACTORS OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT IN THE EAST. Science and innovation, 2(C3), 22-26.
10. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
11. Boynazarova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH. Interpretation and Researches, 2(1). Извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/960>

12.Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

13. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

14.Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>





*Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan dastlabki tanishtirish.*

**Qobilova Madina Sobir qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqa til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqa fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr muloqazalarni boshqalarga yetkazishdir. Buning uchun til va nutq inson hayotida muhim kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish metodikasi fanining o'qitilishi, nutq o'stirish usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar nutqini o'stirishini to'g'ri hal qiladi, bolalarni maktabga tayyorlash yordamini ta'minlash. Yuqorida bayon qilingan tozalash qilish mumkinki, o'zbek tilini qadimiy til sifatida taraqqiy etgan, jamiyat taraqqiyotning barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari xizmat qilmoqda.

Respublikamiz mustaqilligi o'zbek tili taraqqiyotiga ta'sir qiladi, tilimiz mustaqillikning shakllanishini ifodalash, talim harakati barcha bosqichda ona tili ta'limini ta'yordamga xizmat qilmoqda. Boshlang'ich ta'limda bolalar nutqini o'stirish ularga tilini amaliy o'rganish demakdir.

**Kalit so'zlar:** til birliklari, nutq, "Alifbe", og'zaki nutq, yozma nutq, fonetik bilim, tovush tarkibi, ohang, talaffuz.

